

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK
INSTITUTI
JAHON SIYOSATI VA TARIX FAKULTETI "XORIJIY
MAMLAKATLAR TARIXI" TA'LIM YO'NALISHI
BITIRUVCHI KURS TALABASI
YUSUPOV DILMURODNING BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: Afg'onistonda Muhammad Dovud boshqaruvidagi
modernizatsiya siyosati (XX asrning 50-60-yillari)

MUNDARIJA

KIRISH.....	2
I BOB. MUHAMMAD DOVUD AFG'ONISTON TARIXIDAGI MUHIM DAVLAT ARBOBI SIFATIDA	
1.1.XX asrning 50-60 yillarida Afg'onistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat.....	7
1.2.Afg'oniston davlatchilik tarixida Muhammad Dovudning tutgan o'rni.....	18
II BOB. MUHAMMAD DOVUDNING MODERNIZATSIYA SIYOSATI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	
2.1. Muhammad Dovudning modernizatsiya siyosati va uning asosiy bosqichlari.....	28
2.2. Muhammad Dovudning modernizatsiya islohatlarining afg'on jamiyatiga ta'siri.....	36
XULOSA.....	46
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	49
ILOVALAR.....	56

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Afg'oniston Markaziy Osiyo va O'rta Sharqdagi muhim strategik va geosiyosiy mavqega ega mamlakatdir. Uning tarixiga nazar tashlar ekanmiz, har bir davrda turli qarama-qarshiliklar, harbiy va siyosiy mojarolar nuqtasi bo'lib kelganligi, turli bosqinchilar bu mamlakatni va uning jafokash xalqini o'z mustamlakasiga aylantirishga uringanligining guvohi bo'lamiz. O'z davrining yirik saltanatlari bo'lmish – Ahamoniylar davlati, Makedoniyalik Aleksandr davlati, Kushonlar imperiyasi, Eron sosoniylari, islom dini kirib kelgach esa bir qator musulmon davlatlari tarkibiga kiritilganligi tarixdan ma'lum. Dunyo xaritasida yangi mustaqil davlatlar paydo bo'ldi. Ular hozirgi til bilan aytganda sotsialistik o'tmishga ega bo'lgan, o'z siyosiy mustaqilligini tinch yo'l bilan qo'lga kiritgan davlatlardir. Bu davlatlar mustaqil rivojlanish va ijtimoiy munosabatlarni yangilash yo'liga qadam qo'ydi. Ular dunyodagi boshqa mamlakatlar orasida o'z mavqeyini mustahkamlashga intilmoqda. Tenglar orasida teng bo'lish, jahon maydonining tarkibiy qismiga aylanishga harakat qilmoqda.¹XV asrda temuriylar saltanati tarkibida bo'lgan Afg'oniston madaniy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy jihatdan o'zining eng gullagan davrlaridan birini yashagan desak mubolag'a bo'lmaydi. XIX asrdan boshlangan Britaniyaning Afg'onistondagi kolonial siyosati, ingliz-afg'on urushlari, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Afg'onistondagi ingliz-rus raqobati bu mamlakatning erkin taraqqiy etishiga yetarlicha to'siq bo'lib keldi. Afg'anistonda ro'y berayotgan urush jarayonlari, o'z ko'lami va xafilik darajasiga ko'ra, XX asrning oxiriga kelib ko'p millatlar uchun misli ko'rilmagan katta taxdidga aylanadi. Afg'on muamosi va uni keltirib chiqargan oqibatlar esa butun dunyoni haf ostiga qo'ymoqda. "Afg'onistondagi tanglikni chuqurligi va keskinligini uning mintaqaviy va dunyo miqiyosidagi jug'rofiy-siyosiy jarayonlarga tasirini eng katta mintaqaviy mojarolar jumlasiga kiritish lozim.

¹ I.A. Karimov. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari"-Toshkent, O'zbekiston, 1997.-17 bet.

Bugun koalitsion kuchlar tomonidan Afg'onistonda tinchlik o'rnatish bo'yicha tanlangan strategiya kutilgan natijalarni bermayotganini qayd etishga to'g'ri kelmoqda. Urush davom etayotgan har bir kun jafokash Afg'oniston xalqining ahvolini yanada yomonlashtirib og'irlashtirib ushbu mamlakat muamolari yechimini boshi berk ko'chaga kiritib qo'ymoqda. Afg'oniston muammolari bo'yicha o'nlab halqaro kanferensiya va uchrashuvlar o'tkazilmoqda lekin ularning hammasi ham real amaliy samara berayotgani yo'q"². Afg'oniston tarixida juda ko'plab shoh va bosh vazirlar o'tgan. Aynan XX asrning 50-60 yillarida Afg'oniston davlatchiligida muhim ahamiyatga ega bo'lgan, o'zining olib borgan siyosati bilan nom qoldirgan Muhammad Dovud alohida ahamiyatga ega. Aynan Muhammad Dovudning bosh vazirlik davrida ya'ni 1953-1963 yillarda Afg'onistonda bir qancha yangi islohotlar amalga oshirildi.

Bu davrda Afg'onistonda ko'plab siyosiy arboblarning Afg'onistonda mustaxkam, tinch va osoyishta hukumat o'rnatish maqsadida kurashlar olib borgan. Ushbu BMI da Afg'oniston siyosiy tarixida muhim o'rin tutgan davlat siyosiy va harbiy arbobi Muhammad Dovudning olib borgan siyosiy faoliyati haqidadir. Uning Afg'onistonda tinch va osoyishta hukumat o'rnatish maqsadida olib borgan kurashlarini va davlat siyosiy maydonidagi o'rnini o'rganish dolzarb hisoblanadi

Ishning maqsad va vazifalari. Ushbu Bitiruv malakaviy ish davomida Muhammad Doudning XX asrning 50-60 yillardagi Afg'oniston davlatchiligi tarixidagi olib borgan modernizatsiyasi va siyosiy faoliyatini chuqur o'rganish asosiy maqsad va vazifa qilib olindi. Bunga erishish uchun quydagi vazifalarni bajarish lozim:

1. XX asrning ikkinchi yarmida Afg'onistondagi siyosiy vaziyat to'g'risida ma'lumotlar to'plash va o'rganilganlik darajasini aniqlash.

2. Afg'oniston siyosiy tarixiga doir asarlar bilan bevosita ishlab va bu asarlar bilan tanishib chiqish;

² I.A. Karimov. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" Toshkent, O'zbekiston, 1997.21- bet.

3. Shu davrga oid asosiy manbalardan bu davlatga tegishli ma'lumotlarni to'plash;

4. Chet el olimlari asarlari, maqolalari va fikrlarini o'rganish;

5. To'plangan barcha ma'lumotlarni taqqoslash, qiyoslash, ular orasidan eng aniq va manbaga tayanganlarini ajratib olish;

6. Olingan barcha ma'lumotlarni tartibga solib, bir ish holga keltirish.

Bu olti vazifa to'liq bajarilganda, biz o'z maqsadimizga erishgan bo'lamiz

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Ushbu bitiruv malakaviy ishini yoritishda avvalam bor mamlakatimiz pirezidenti Islom Karimovning asarlaridan keng foydalanildi. Hozirgi kunda har bir mamlakat o'z tarixini chuqur o'rganmog'i darkor. Mavzuni o'rganilish darajasi Afg'onistonni davlatchiligida o'zining yetuk namoyondasi Muhammad Dovudning yuritgan siyosati haqida ko'plab yetuk mutaxassislar asar yozgan. "История Афганистана с древних времен до наших дней". Ю.В.Ганковский³ М, 1982 "Афганистан на пути Истории". Мир Гулам Мухаммад Губар⁴. Москва, 1987. Назаров Х⁵. «Социальные движения 20-годов XX века в Афганистане» Душанбе, 1990 Mir Ghulam Muhammad Ghobar⁶, P: "Afghanistandarmaseer Tarikh" ;Донесение Госдепартамента США от 1963 г.

Ahmed Rashid⁷, "Kabul", 2002 (LINK): "...The last time Zahir Shah saw Kabul it was an international diplomatic backwater, but a thriving, bustling town where the elite..."

Слинкин М.Ф.⁸ Афганистан: оппозиция и власть (60 – 70-е гг. XX в.)

М.Ф.Слинкин – «Государственный переворот 1973 г. в Афганистане».

Afg'oniston davlatchiligining ijtimoiy va siyosiy tarixida Muhammad Dovudning o'rni haqida bir qancha Yevropa va rus olimlari o'rgangan.

³Ю.В.Ганковский "История Афганистана с древних времен до наших дней".М., 2008

⁴Мир Гулам Мухаммад Губар "Афганистан на пути Истории"М.,1988

⁵ Назаров Х «Социальные движения 20-годов XX века в Афганистане» Душанбе, 1990

⁶Mir Ghulam Muhammad Ghobar

ar "Afghanistan dar maseer Tarikh" ;Донесение Госдепартамента США от 1963 г.

⁷ Ahmed Rashid "Kabul", 2002 (LINK)

⁸ Слинкин М.Ф Афганистан: оппозиция и власть (60 – 70-е гг. XX в.), «Государственный переворот 1973 г. в Афганистане».

Jumladan 1979-1984-yillarda Rus tarixchisi Viktor A. M. o'zining 1993-yilda nashr etilgan “Загадкиафганскойвойны” asarida ham Afg'onistonning o'sha davrdagi ijtimoiy va siyosiy hayot haqida batafsil ma'lumotlar beradi⁹. Bundan tashqari Арунова М.Р.¹⁰, Губар Мир Гулам Мухаммад¹¹, Ганковского Ю.В.¹², Коргун В.Г.¹³, Дворянкова Н.А.¹⁴, Ахрамович Р.Т.¹⁵, Александр Ляховский, Лапшин Ю. М¹⁶. va boshqalar o'z asarlarida Afg'onistonning siyosiy hayotini va Muhammad Dovud davrini yoritib bergan.

Ishning tadqiqot abyekti va piredmet. 1953-1963 yillarda Muhammad Dovud Afg'anistonda bosh vazirlik davri haqida o'sha davrdagi rus manbalarida uchraydi. Слинкин М.Ф. Афганистан: оппозиция и власть (60 – 70-е гг. XX в.) 1978-yilda afg'on tarixchisi Mir G'ulom Muhammad G'ubor (1895-1978-yillar) “Афганистан дар масир-е тарих” (Afg'oniston tarix yo'llarida) asarini yozib tugatdi. Ushbu BMI da Afg'oniston siyosiy tarixida muhim o'rin tutgan davlat siyosiy va harbiy arbobi Muhammad Dovudning Afg'anistondagi moderenezatsiya faoliyati va uning Afg'onistonda tinch - osoyishta hukumat o'rnatish maqsadida olib borgan kurashlarini, davlat siyosiy maydonidagi o'rmini o'rganishda М.Ф.Слинкин – «Государственный переворот 1973 г. в Афганистане» Слинкин М.Ф. Афганистан: оппозиция и власть (60 – 70-е гг. XX в.) va Коргун В.Г. Афганистан: Политика и политики. М. 1999 yozgan kitoblari tadqiqod obyekti sifatida tanlab olindi.

Ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati. Ushbu Bitiruv malakaviy ishi bo'yicha olib borilgan izlanishlar davomida Muhammad Dovudning siyosiy faoliyatini izchil o'rgandik va ilmiy ahamiyati shundan iborat:

⁹Виктор А. М. Загадки афганской войны М.: Вече 2006

¹⁰Арунова М.Р. Афганская политика США. М., 2000.

¹¹Губар Мир Гулам Мухаммад. Афганистан на пути истории. Под ред. Ганковского Ю.В. и Коргуна В.Г. Пер. и ком. Давлятова Муллошо. М., 1987.

¹² Ганковского Ю.В История Афганистана.. М., 1982.

¹³Коргун В.Г. Афганистан: Политика и политики. М., 1999., Коргун В.Г. Интеллигенция в политической жизни Афганистана.-М., 1982.

¹⁴Дворянкова Н.А. Современный Афганистан. Под ред. М., 1960.

¹⁵Ахрамович Р.Т. Афганистан в 1961—1966 гг. М., 1967.

1. Manbalardagi Afg'onistonning XX asrning ikkinchi davridagisiyosiy-ma'muriy hayotiga oid ma'lumotlarni aniqladik va Muhammad Dovudning moderenezatsiya siyosatini tahlil qilishga harakat qilindi.

2. Aniqlangan ma'lumotlarga asoslanib, Afg'onistonning XX 50-60 yillaridagi ijtimoiy siyosiy vaziyatni ilmiy jihatdan isbotlashga harakat qilindi.

3. Afg'oniston siyosiy hayotida Muhammad Dovudning tutgan o'rni qanchalik ahamiyatligi ilmiy jihatdan isbotlandi.

Amaliy ahamiyati, BMI ma'lumotlari Afg'onistonning XX asrning 50-60 yillardagisiyosiy-ma'muriy hayotiga oid ayrim risola, o'quv qo'llanmalari, ma'ruza matnlarini yoritishda foydalanishi mumkin.

Ishning tarkibiy qismi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, 4 qism, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati va ilovadan tuzilgan.

I BOB. MUHAMMAD DOVUD AFG'ONISTON TARIXIDAGI MUHIM DAVLAT ARBOBI SIFATIDA

1.1. XX asrning 50-60 yillarida Afg'onistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat

Shuni qayd etish lozimki, Abdurahmonxon davrida Afg'onistonda parlament va konstitutsiya ishlab chiqishga ilk harakatlar bo'lgan. Omonullaxon, Nodirshoh va Zohirshoh hukmronliklari davrida afg'on jamiyatini zamonaviylashtirish borasidagi islohotlar qaysidir ma'noda o'z natijasini bergan bo'lsada, afg'on jamiyati, ayniqsa Omonullaxonning radikal islohotlariga hali tayyor emasdi. Shu sababli ham diniy ruhoniylar yordamiga suyangan Bachai Saqo hokimiyatni o'z qo'liga oldi. Afg'onistonda Omonullaxon, Nodirshoh va uning o'g'li Zohirshoh davri monarxiya davri deb e'tirof etiladi. Omonullaxon davrida boshlangan islohotlar, keyinchalik Zohirshohning demokratik tajribasida ham o'z ifodasini topdi. Ko'pgina G'arb tadqiqotchilarining fikricha aynan Muhammad Zohirshoh hukmronligi davrida Afg'oniston o'zining eng osuda davrini boshdan kechirgan. Lekin aynan uning hukmronligi vaqtida mayda millatlar o'z siyosiy huquqlarini talab qilib, turli siyosiy partiya va tashkilotlarni tuzdilar, diniy ruhoniylar hukmron doiralarning siyosatidan norozi bo'lib, keskin talablar bilan namoyishlarni avj oldirdilar. Afg'onistondagi monarxiya davri (1919-1973 yillar bilan belgilanadi) o'zining keskin g'oyaviy-siyosiy kurashlari, ijtimoiy-iqtisodiy yangilanishlari, konstitutsion tarixi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. XX asrning ikkinchi yarmida Afg'onistondagi vaziyat hamda 1953-1963 yillarda Muhammad Dovudning bosh vazirlik davrida Afg'onistonda olib borgan siyosati va mamlakatni mo'derinezatsiya qilishga qartilgan ishlar natijasida afg'on jamiyati nimalarga erishdi degan savollarga javob topish ushbu mavzuning dolzarb masalalari hisoblanadi.

Bu davrda Afg'onistonni Barakzoylarning Durraniy shohlari sulolasiga mansub bo'lgan Zohirshoh boshqarar edi, bobosi Yahyoxon Britaniya bilan Gandamak shartnomasi davomida Afg'oniston vakili bo'lgan. Zohirshohning

pushtunlarga mansubligi va fors tilini yaxshi bilishi uning boshqaruvining ma'lum davrida ko'pchilik pushtunlar va Afg'oniston jamiyatining forsiyzabon qatlami o'rtasidagi muvozanatni saqlab turgan.¹⁷U Afg'oniston tarixidagi ma'rifatli, progressiv va oliy ma'lumotli hukmdorlardan hisoblanadi. Fransiyada dunyoviy bilimlar bilan birga harbiy ma'lumot ham olib, fransuz ofitseri unvoniga sazovor bo'lgan. U pushtun tilidan tashqari fors, ingliz, fransuz va italyan tillarini ham mukammal bilgan. Otasi Nodirshoh vafotidan keyin, 1933 yil Fransiyadagi o'qishini tashlab taxtga o'tiradi. Hukmronligining dastlabki 20 yili davomida mamlakatni amakivachchalari Hoshimxon va Shoh Mahmud yordamida boshqargan. 1964 yil Zohirshoh yangi konstitutsiya qabul qildi. Demokratiyani kuchaytirish va ayollarning teng huquqliligi masalalari konservativ ruhoniylarning noroziligiga sabab bo'ldi. Shuningdek, fors tilini cheklash va pushtu tilining mavqeini oshirish borasidagi harakatlari omadsizlikka uchragan. Bu davrda, ya'ni XX asrning ikkinchi yarmida Afg'oniston davlatining yuqori organlari hukumat va parlamentda ko'pchilikni pushtunlar tashkil qilgan. Bunga aynan Zohirshohni pushtunlardan ekanligi sabab bo'lgan va boshqa etnik guruhlar hamda mayda millatlar hukumatga qarshi kayfiyatdagi muxolifat partiya, harakatlar va tashkilotlarni tuzganlar. Masalan, "Sitame Melliy" (Tohir Badaxshoniy boshchiligida), Abdurahmon Maxmudiy harakati va h.k.¹⁸ Ba'zi manbalarda konservativ muxolifat bilan kurashda Zohirshoh shia diniy rahnamolaridan Said Ismoil Balxiy va Mavlon Fayzaniylarning o'ldirilishini tashkillashtirishda ayblanadi.¹⁹Ko'pchilik afg'onlar Zohirshoh davrini Afg'onistonning "oltin asri" deb ataydilar, chunki bu davrda mamlakatda nisbatan tinchlik va barqarorlik hukm surdi. Zohirshoh boshqaruvi vaqtida hukumatga ko'plab chet el maslahatchilarini taklif etdi, birinchi zamonaviy universitetga asos soldi. Uning davrida ayollar ta'lim olish va saylash imkoniyatiga ega bo'ldilar, shohning oila a'zolari hukumatda biror

¹⁷ Ahmed Rashid, "Kabul", 2002, (LINK): "...The last time Zahir Shah saw Kabul it was an international diplomatic backwater, but a thriving, bustling town where the elite..."

¹⁸ Mir Ghulam Muhammad Ghobar, P: "Afghanistan dar maseer Tarikh" ;Донесение Госдепартамента США от 1963 г.

¹⁹ Mir Ghulam Muhammad Ghobar, P: "Afghanistan dar maseer Tarikh" 1987-M 35-37

bir mansabni egallashi man etildi. Bu davrda mamlakatda nashiryot erkinligi va saylanadigan parlament mavjud edi. Zohirshoh Moskva va Vashington bilan aloqalarda muvozanatni ushlab tura oldi. Shuningdek, Yevropa bilan madaniy va savdo-iqtisodiy aloqalarni kuchaytirdi. Uning mashhur iborasi bor edi: “Qur’onda Alloh ilmiy-texnikaviy taraqqiyotga qarshi deb aytilmagan, shunday ekan nega bunga harakat qilmasligimiz kerak”. Zohirshoh hukumronligi davrida Afg’anistonda ko’plab o’zgarishlar olib borildi. Aynan shu davrda 1964- yil 1 oktabrda Afg’onistonda shoh tomonidan tasdiqlangan yangi Konstitutsiya kuchga kirdi. Bu Afg’oniston davlatchiligi tarixidagi uchinchi Konstitutsiya edi (birinchi Konstitutsiya. 1923 y,²⁰ ikkinchi Konstitutsiya. 1931 yil qabul qilingan).²¹Yangi Konstitutsiyaning qabul qilinishi jiddiy iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy o’zgarishlarga olib keldi. Aynan shu davrda hukumat iqtisodiyotni rejalashtirish, sanoatni rivojlantirish, qishloq xo’jaligini yangilash borasida chora-tadbirlarni ko’rdi. Madaniyat sohasida qator islohotlar amalga oshirildi. 1959 yil ayollarga chodra o’rash majburiyati bekor qilindi. O’tkazilgan islohotlar afg’on jamiyati sinfiy tuzilishida bir qancha o’zgarishlarga olib keldi. Milliy burjuaziyaning iqtisodiy mavqei mustahkamlandi. Konstitutsiya “Milliy suverinitet timsoli” bo’lmish shohning keng huquqlarini saqlab qoldi. Unga ko’ra shoh qurolli kuchlar bosh qo’mondoni hisoblanib; urush e’lon qilish va tinchlik sulhi imzolash, Lo’yi Jirg’ani chaqirish va ochish,²² parlamentning odatiy sessiyasini ochiq deb e’lon qilish, parlamentning favqulotda sessiyalarini chaqirish va ochiq deb e’lon qilish, parlamentni tarqatib yuborish, qonunlarni tasdiqlash, bosh vazirni tayinlash va vazifasidan ozod qilish, bosh vazir taklifiga binoan vazirlarni tayinlash va vazifasidan ozod qilish va h.k. huquqlariga ega edi. “Shoh hech kimning oldida javobgar emas. U o’z vakolatlarini Konstitutsiya doirasidagina amalga oshiradi” (14 modda).

Bu davrdagi monarxik Afg’onistonning oliy hokimiyat organlari huquqiy holatiga baho berganda shuni ta’kidlash kerakki, avvalgi

²⁰ В.Н. Дурденевский, Е.Ф.Лудшувейт, Конституции Востока, Госиздат, -Л., 1926, С. 68 – 73.

²¹ “Конституции государств Ближнего и Среднего Востока”, ИЛ, -М., 1956, С. 13 – 28

²² «Jirg’a» Pushtu tilida “Kengash” ma’nosini anglatadi.

konstitutsiyaga ko'ra mamlakatda dualistik, deyarli mutlaq monarxiya mavjud bo'lgan bo'lsa, yangi konstitutsiyaga ko'ra "Xalq Jirg'asi" deb ataladigan parlament quyi palatasiga ham keng vakolatlar berilgan edi. Hukumat nafaqat shoh oldida balki, Xalq Jirg'asi oldida ham javobgar bo'lgan. Bosh vazir va vazirlar ham o'z majburiyatlarini bajarishda Xalq Jirg'asi oldida mas'ul edilar. Xalq Jirg'asi deputatlarining 1/3 qismi taklifiga binoan hukumat faoliyatini tekshirish va o'rganish uchun maxsus komissiya tuzilishi mumkin edi. 1964 yilgi Afg'oniston konstitutsiyasi ham o'sha davrdagi boshqa G'arb davlatlari konstitutsiyalari kabi ikki palatali parlamentni nazarda tutgan va unda parlament quyi palatasi asosiy rolni o'ynagan.²³ Konstitutsiyaning 24 moddasiga ko'ra, shoh oilasi a'zolari bosh vazirlik, vazirlik, oliy sud va parlament a'zosi lavozimlarida faoliyat yuritishi, shuningdek, siyosiy partiyalarga a'zo bo'lishi taqiqlangan. 1960 yillarning boshlarigacha davlat tili faqat pushtu tili hisoblangan. Yangi asosiy qonun pushtu tili bilan birgalikda dariy tilini ham davlat tili deb e'lon qildi.

Konstitutsiyaning 1 moddasida, afg'on davlati fuqaroligiga ega har bir shaxs afg'on xalqiga mansubligi belgilab berilgan.

Afg'onistonning yangi konstitutsiyasi butun sud tizimini qayta tashkil qilishni nazarda tutgan. Sud organi faoliyatining huquqiy asoslarini kuchaytirish ruhoniylarning sud tizimidagi ta'sirini cheklashga qaratilgan.

Afg'onistonning yangi Konstitutsiyasi mamlakatni rivojlantirish borasidagi kuchli progressiv qadam bo'ldi.

Afg'onistonda muholifatchilar faoliyati ayniqsa 1960 yillarning o'rtalarida kengayib, o'z atrofiga aholining yangi qatlam va guruhlarini to'pladi. Mamlakat shaharlarida ayniqsa, Kobulda talabalar va o'quvchi yoshlar, ishchilar, ziyolilar vakillari, amaldorlar va shahar aholisining boshqa tabaqalari ishtirokidagi namoyish va chiqishlar odatiy holga aylandi. Bunday holatda yuqori hukmron doiralar ommaviy fikrlarni nazorat qilish, ijtimoiy tanqidlarning

²³ Л.Я.Дадияни. Новая Конституция Афганистана. Советское Государство и право. –М., 1990. – N 8. – С. 118 – 120

keskinligini susaytirish va mamlakatda siyosiy barqarorlikni tiklash maqsadida zudlik bilan muholifat qarashlariga qarsh harakatlarni kuchaytirdi. Bunda islom dini va musulmon ruhoniylardan foydalanishga urinilgan.²⁴ Biroq hukmron doiralarning bu harakatlari o'zini oqlamadi va ular jamiyatda oppozitsion g'oya va qarashlarning tarqalishiga to'sqinlik qila olmadilar. Bunday sharoitda o'ng konservativ-klerikal doiralar ochiq ommaviy namoyishlarga o'ta boshladi. U boshdan oyoq Lenin va Leninizm, hamda Lenin tavallud kunini Afg'onistonda nishonlash to'g'risida bo'lgan. "Parcham" Gazetaning bir sonida "Inqilob kuyi" nomli she'r bosib chiqarilgan bo'lib, uning so'nggi satrlari quyidagicha edi: "Dorud bad be an rahbar-e bo'zo'rg Lenin-e kabir". Dindor ruhoniylar "dorud" so'zi (ma'nosi: hamd-u sano) faqat payg'ambarga nisbatan qo'llanishini aytib, gazeta muharririni "islom an'anasini buzish" va "dinga qarshi haqorat"da aybladilar va shu asosda "Parcham" gazetasini taqiqlashni talab qildilar.

"Islom ishlari bo'yicha mas'ul qo'mita" asoschilari bo'lgan obro'li ruhoniylarning chaqirig'iga binoan mamlakatning turli tumanlari, jumladan janubiy va sharqiy provinsiyalardan bir yarim mingga yaqin dindorlar Kobulda to'plandilar. Ular tez orada shahar aholisining hayrihoh qismini o'z atroflariga to'play boshlashdi va ko'plab namoyishlar o'tkaza boshlashdi. Saroy va hukumat avvaliga bu chiqishlarga unchalik e'tibor qaratmadi. Ular konservativ ruhoniylarni har kuni Kobulning asosiy jome' masjidi bo'lmish "Puli Xeshti" da to'planib, politsiya kuzatuvida shahar ko'chalarida antikommunistik nutqlar bilan ommaviy chiqishlariga ruxsat berib qo'ygandi, shuningdek ularga davlat nashriyotlaridan foydalanish imkoniyati ham berilgan.²⁵ Shuni ta'kidlash kerakki, hukmron monarxik doiralar konservativ klerikal doiralarni qo'llab quvvatlash orqali ulardan mamlakatda chuqur ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy qayta qurishlarni talab etayotgan progressiv muholifat faoliyatiga qarshi bufer sifatida foydalanishga urindi. Shu o'rinda Afg'onistondagi diniy harakatlarning tarixiga qisqacha nazar tashlasak. XX asrning 20 yillaridan boshlab diniy ulamolar Fazl

²⁴ Слинкин М.Ф. Афганистан: оппозиция и власть (60 – 70-е гг. XX в.).Симферополь, 1999. С. 133-134

²⁵ Слинкин М.Ф. Афганистан: оппозиция и власть (60 – 70-е гг. XXв.). Симферополь, 1999.С. 135-137

Umar Mujaddadiy, Muhammad Sodiq Mujaddadiy, Xalifa Kazal Ayyoq, Ne'matulla Kodyoniy, Subxona Vardakiy, Qozi Abdurahmonxon, Qozi Fazl al-Haq, Qozi Qodir Pag'moniy va boshqalar, hamda 1924 yilda Qandahor, Hirot va Nangarhor mullalari Abdulla Lang, Abdurashid va boshqalar hukumatga qarshi qo'zg'alon ko'tarishgan. 1928 yil esa, mulla Muhammad A'lam, mulla Muhammad Afzal boshchiligidagi "shinvoriy" qabilalari qo'zg'alon ko'targan. O'z vaqtida Omonullaxonga qarshi qo'zg'alon ko'targan Bachai Saqoni ham diniy ulamolar qo'llab-quvvatlagan. Nihoyat, 1959 yilda ayollarning chodra tashlashiga qarshi chiqishlar bo'lib o'tdi. Ruhoniylarning siyosiy hayotga aralashuvining keyingi bosqichi 1964 yil konstitutsiyasi qabul qilingandan so'ng boshlanadi.

Konservativ kuchlarning boshida obro'li diniy ruhoniylar, siyosiy elita turgan. Ammo, ular 2 ta oqimga bo'lingan: Birinchisi modernizatsiya tarafdorlari. Ular yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni islomga moslashtirishga harakat qilgan. Bu guruh ko'proq yirik masjidlar imomlaridan, shariat sudiyalaridan, teologiya fani mudarrisalaridan tashkil topgan. Ular Afg'oniston va Hindistonning Diobandidagi oliy o'quv yurtlarini tamomlashgan. Ikkinchi guruh o'ta so'l bo'lib, Mujaddadiy, Naqib Soyib Bag'dodiy sulolalari va klerikal elita oilalaridan chiqqan. Ruhoniylarning bu qismi modernizatsiya va demokratik kuchlarga qarshi edi. Hukumat tomonidan 50 - yillardan boshlab klerikallarga qarshi qatag'onlar boshlanadi. 1959 yilgi Qandahor mullalarining qo'zg'aloni ishtirokchilari qatl etiladi. Ulamolarning oliy organi "Ulamolar kengashi" o'z faoliyatini to'xtatishga majbur bo'ldi.

1960 yillarning ikkinchi yarmidan boshlab diniy ulamolar hukumat yordamida Afg'onistonning turli viloyatlarida diniy konferensiyalar o'tkaza boshladi. Diniy ulamolarning gazetasi "Payome xalq" bo'lgan. Ruhoniylar 60 - yillardan boshlab sho'rolarga qarshi kurash olib borgan. Sha'bon oyining ilk kunlarida ruhoniylar hukumatga o'ndan ortiq talablar qo'ydilar. Oxirgisi ultimatum shaklida bo'lib, qat'iy bajarilishi talab etilgan. Ulardan eng asosiylari quyidagilar: "Parcham" gazetasini taqiqlash va uning muharririni jazolash;

kommunistik g'oyalarning mamlakatda tarqalishiga yo'l qo'ymaslik; yoshlar orasida urf bo'lgan mini-yubka va klyosh shimlarni kiyishni taqiqlash va milliy kiyimlarni kiyilishini majburiy etib qo'yish; behayo sahnalarni namoyish etuvchi chet el filmlarini taqiqlash; davlat idoralaridagi barcha ayollarni bo'shatish va oila ta'minotchisi bo'lgan erkaklarni ish bilan ta'minlash va h.k. Shuni ta'kidlash kerakki, ruhoniylar shu va boshqa talablarni ilgari surganda va xalqning keng ommasini o'ziga jalb qilganda ularning diniy e'tiqodlari va og'ir moliyaviy holatlarini nazarda tutgan. Kundan kunga ruhoniylarning talablari ham ortib, ularning harakatlari siyosiy tus ola boshladi. O'ng muholifat ruhoniylar 1960 - yil mayida Kobul va mamlakatning boshqa shaharlarida nashriyot vositasida varaqalar chiqardilar. Bu varaqalar mualliflari mamlakatdagi boshqa muholifat guruhlar va hukmron doiralarni "mamlakatda xalqaro imperializm ta'sirini kuchaytirishga harakat" hamda "milliy birlikka rahna solish"da aybladilar. Shuningdek bu varaqalarda barcha musulmonlarni "islomga qarshi kuchlar bilan muqaddas urushga" chaqirdilar. Ushbu varaqalarning nashr etilishi, ruhoniylarning chiqishlari hukumat nazoratidan chiqib ketganligini ko'rsatadi. Bunday vaziyatda hukumat namoyishlar ochiqdan ochiq qo'zg'alonga aylanib ketishini oldini olishga qaror qildi. 24 may kuni kechqurun Kobul radiosidagi hukumat xabarida ruhoniylarning "noqonuniy faoliyati" haqida gapirildi. Unda aytilishicha: "Hukumat tartibni saqlash va jamiyat xavfsizligini ta'minlash maqsadida hamda o'z javobgarligi yuzasidan bunday yig'ilishlarni to'xtatilishini e'lon qiladi. Xavfsizlik kuchlariga kerakli topshiriqlar berilgan".²⁶ 24 maydan 25 mayga o'tar kechasi qo'shinlar kuch ishlatib turli viloyatlardan bu yerga kelgan ruhoniylarni poytaxtdan chiqarib yubordi.

Ayniqsa bu holat mayning oxirida Mozori Sharif, Jalolobod va Afg'onistonning boshqa qismlarida kuchli kechdi. Mozori Sharifdagi ruhoniylarning chiqishlari Kobuldagi voqealar bilan bir vaqtda 19 maydayoq boshlangandi. Bu namoyishlarda Mozori Sharifdagi madrasa mudarrisleri,

²⁶RuznomaiAnis – 1970, 25 may 13 soni

masjidlar mullalari, mamlakat shimolidagi Toshqo'r'gon, Akchi, Shibirg'on shaharlaridan kelgan dindorlar, shuningdek, shahar kambag'allari qatnashdi.

Mozori Sharif ruhoniylari nafaqat mahalliy aholini balki, Pokiston va Saudiya Arabistoni musulmonlarini ham yordamga chaqirib xalqaro hamjamiyatni bu ishga jalb etishga uringan.²⁷ Mozori Sharifdagi bir necha kunlik namoyish va chiqishlar davomida hukumatga quyidagi talablar qo'yildi: "Vatan va islom aqidalari xoini" Mozori Sharif provinsiyasi gubernatorini ishdan chetlatish; Ali (r.a.) maqbarasi qarovchisi Kari Abdul G'ofur va shaharning boshqa qator mullalarini xizmatidan chetlatish, Ali maqbarasi hududiga ayollarning kirishini taqiqlash; Balx viloyati teatrini buzib tashlab uning truppasini tarqatib yuborish va h.k. Mozori Sharifda bir necha kun davom etgan namoyishlar natijasida viloyat gubernatori Kobulga qochib ketishga majbur bo'ldi. May oyining oxirida viloyat ma'muriyati vakillari o'ng konservativ ruhoniylar bilan muzokaraga kirishib ularning aksariyat talablarini qabul qildi va shundan so'ng shaharda vaziyat barqarorlashdi.

Ruhoniylar namoyishlarining eng dramatik voqealari mamlakat sharqida, Jalolobodda sodir bo'ldi. Bu yerdagi namoyishlarga Kobuldan chiqarib yuborilgan mullalar, shaharning quyi va o'rta tabaqa dindorlari, shuningdek, *shinvoriy* qabilalarining yetakchilari boshchilik qildilar. Jalolobodning oliy ruhoniylari bu ochiq namoyishlarda ishtirok etishmadi.²⁸

Jalolobod voqealari quyidagicha rivojlandi. 27 may tongda ruhoniylarning chaqirig'iga binoan yaqin atrofdagi aholi punktlaridan asosan dehqonlardan iborat 2500 dan ziyod kishi shaharning asosiy masjidida to'plandilar. Ularga shaharning diniy kayfiyatdagi mayda savdogarlari, hunarmandlar qo'shildilar. Kunning yarmiga kelib namoyishchilar soni 5000 kishiga yetdi.

Ular sovetlarga qarshi kayfiyatda bo'lib, Jalolobod irrigatsiya tizimida ishlab turgan sovet mutaxassislarini mamlakatdan chiqib ketishini talab qila

²⁷ Слинкин М.Ф. Афганистан: оппозиция и власть (60 – 70-е гг. XX в.).Симферополь, 1999. С. 132-135.

²⁸ Слинкин М.Ф. Афганистан: оппозиция и власть (60 – 70-е гг. XX в.).Симферополь, 1999. С. 136-138.

boshladilar. Kunning ikkinchi yarmida olamon odatda chet elliklar to'xtab dam oladigan "Spingar" mehmonxonasiga yo'l oldi va "mehmonxona yoshlarni buzmoqda" shiori ostida avvaliga uning eshik va oynalarini sindirib mebellarini yoqa boshladilar. Bundan tashqari namoyishchilar "sovet-afg'on do'stligi" ko'rgazmasi va yaqin atrofdagi teatrga ham hujum qildilar.

Namoyishchilarni tarqatishda hukumat shahar ko'chalariga armiya bo'linmalarini kiritishga majbur bo'ldi. Bir necha ogohlantiruvchi o'q uzilgandan so'ng olamon tarqala boshladi. Maydonda 700-800 kishi qolgandan keyin politsiya ommaviy xibsga olishni boshladi. Bir vaqtning o'zida qo'shinlar afg'on-pokiston chegarasiga ham joylashtirildi. Bundan maqsad Pokiston ruhoniylarining Afg'oniston voqealariga aralashishini oldini olish, ikki davlat o'rtasida nizo keltirib chiqarmaslik edi. Iyun oyining boshida o'ta o'ng ruhoniylarning namoyishlari hamma joyda bostirildi. Bu voqealar natijasida "Parcham" gazetasi faoliyatini tugatdi²⁹.

Afg'onistonda 60 yillardagi, ayniqsa uning ikkinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy kurashda oliy diniy rahnamolar boshchiligidagi musulmon ruhoniylarining o'ng qanoti demokratik muholifat guruhlariga qarshi shoh tuzumining asosiy quroliga aylanganligini ta'kidlash kerak. So'nggi o'n yillikda ularning jamiyatga ma'naviy ta'siri susaygan bo'lsada, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayoti va davlat ishlarida o'zining jiddiy kuchi va ulkan imkoniyatlari mavjud ekanligini ko'rsatdi. Ushbu yillardagi klerikal rahnamolar faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari shundan iborat ediki, ular doimiy ravishda shaharning quyi dindorlari va qishloq aholisi nochor qatlamining qo'llab-quvvatlashi orqali islom an'analarini himoya qilishga va dunyoviy hokimiyat hamda uning muholifatidan mustaqil bo'lgan islom ijtimoiy tartibini o'rnatishga chaqirib kelishgan. Bu harakatlari bilan ular o'zlarini hayrihoh omma ko'z o'ngida xalq hohish istaklari va musulmon an'analari himoyachilari sifatida ko'rsatib, shu orqali diniy va siyosiy obro'-e'tiborlarini oshirishga harakat qilganlar. O'ng klerikal ruhoniylarning shoh sulolasi bilan qarashlari har-xil bo'lgani bilan ular

²⁹ Слинкин М.Ф. Афганистан: оппозиция и власть (60 – 70-е гг. XX в.).Симферополь, 1999. С. 139-140

mavjud siyosiy tuzum va hukumatning monarxik tuzilishiga dahl qilmasdi. Musulmon konservativ ruhoniylarning ba’zida hukumatga qarshi pozitsiyada turishi, faqatgina, hukmron doiralarning monarxik tuzumni liberallashtirish rejalari va mamlakatni iqtisodiy rivojlantirishning cheklangan dasturlarini bekor qilish, shuningdek, saroy va hukumatning demokratik muholifatga qarshi keskin kurash olib borishini talab qilish doirasida bo’lganligini aytib o’tish lozim.

Afg’onistonda mamlakatdagi shu vaqtgacha shakllanib kelgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy holatning tabiiy natijasi o’laroq monarxiyaga qarshi to’ntarish ro’y berdi. Bu to’ntarishga podshohning amakivachchasi va kuyovi bo’lgan hamda g’arb matbuotida yuqorida tasvirlangan hodisalardan avvalroq “qizil shahzoda” laqabini olib ulgurgan Muhammad Dovud boshchilik qildi.

Til biriktiruvchilarning asosiy kuchi armiya edi; to’g’rirog’i, armiyaning so’l-radikal muxoliflardan hamda Muhammad Dovud tarafdorlari bo’lgan vatanparvarlik va millatchilik kayfiyatidagi zobitlardan tashkil topgan qismi edi. Shuni qayd etish lozimki, u 1953-1963 yillarda, ya’ni bosh vazir va milliy mudofaa vaziri bo’lgan paytlarda armiyada o’zining ko’pgina tarafdorlariga ega bo’ldi. Muhammad Dovud tarafdorlarining 60-yillarning o’rtalarida monarxiyani inkor qilish asosida shakllangan tashkiliy yadrosiga Afg’oniston armiyasi bosh shtabining avtobronetank boshqarmasi boshlig’i general Abdul Karim Mustag’ni, 15-tank brigadasining shtab boshlig’i polkovnik G’ulom Haydar Rasuliy (to’ntarishdan oldin iste’foda edi), polkovnik G’ulom Sarvar, “A” zobitlik kurslari taktika o’qituvchisi mayor Muhammad Sarvar Nuristoniy hamda quruqlik qo’shinlari va HHK (harbiy havo kuchlari) ning boshqa ba’zi zobitlari kirar edi. Ammo Muhammad Dovudning harbiy tarafdorlari (asosan katta zobitlar) guruhi, “yuqori”da ko’plab do’stlari bo’lishiga qaramay, haqiqatda oyoqlari ostida “sochilib yotgan” davlat hokimiyatini yig’ishtirib olish uchun qo’l ostida hech qanday qo’shinga ega emas edi. Batalyonlar va rotalar – eng avvalo poytaxtda va uning atroflarida – yosh, progressiv kayfiyatdagi so’l

zobitlar qo'l ostida edi.³⁰ Biroq ular ham yakka holda hech qanday ahamiyatga ega emas edilar, chunki o'z saflarida umummillat miqyosida tan olingan, hamda nafaqat antimonarxik chiqish bilan idorani o'z qo'lga olishga, balki hokimiyatni qo'lga olgandan so'ng mamlakatdagi va armiyadagi kuchli konservativ doiralarni o'z nufuzi bilan neytrallashtirishga qodir bo'lgan lider yo'q edi. Bu davrda umummilliy lider rolini o'zining tashkiliy jihatdan tarqoqligi va kamsonliligi tufayli hatto Afg'oniston Xalq Demokratik Partiyasi ham ijro etolmas edi.

Afg'onistondagi siyosiy kurashning bu bosqichida bunday lider, shubhasiz, tajribali, g'ayratli va uzoqni ko'ra olguvchi siyosatchi, xorijdagi pushtunlarning milliy huquqini himoya qilishda shuhrat qozongan, 50-yillar va 60-yillarning boshida mustaqil tashqi siyosat yo'lining muallifi va izchil targ'ibchisi sifatida, "boshqariladigan iqtisodiyot" siyosatining tashkilotchisi sifatida afg'on jamiyatida katta hurmatga sazovor bo'lgan, mamlakatni milliy kapitalizm yo'lida sezilarli darajada rivojlantirgan siyosiy arbob Muhammad Dovud edi. Aytib o'tilgan siyosiy voqeliklarni hisobga olgan holda so'llar monarxiyani ag'darish borasida Muhammad Dovudga, u esa o'z navbatida armiyadagi radikal kayfiyatdagi so'l zobitlarga umid bog'ladi.³¹ Muhammad Dovud atrofida to'plangan guruh va yosh harbiy muxoliflar orasidagi ilk maxfiy aloqalar, taxminan, 70-yillarning boshida ro'y berdi.

³⁰ История вооруженных сил Афганистана. 1747 – 1977 Под ред. Ю. В. Ганковского. – М.: Наука, 1985. – С.164 – 169

³¹ М.Ф.Слинкин – «Государственный переворот 1973 г. в Афганистане». -Симферополь, 1999.С. 93-97

1.2. Afg'oniston davlatchilik tarixida Muhammad Dovudning tutgano'rni

Afg'onistonda bu davrga kelib o'zaro ichki kurashlar oqibatida ko'plab siyosiy o'yinlar boshlanib ketadi. Bu kurashlar oqibatida esa, shundoq ham urushlarni o'z boshidan o'tkazayotgan afg'on xalqi uchun bu kurashlar faqat tanazul sari yetaklar edi. Aynan shu davrda afg'on davlatchiligida siyosiy madaniy va ijtimoiy sohalarda munosib o'rniga ega bo'lgan va 1953-1963 yillarda bosh vazirlik lavozimida bo'lgan Muhammad Dovud o'zining faoliyatini boshlaydi.

Asli ismi Sardor Ali Muhammad Lamari ibn Muhammad Aziz Dovud-Hon 1908 yil 18 iyulda Afg'onistonning o'ziga to'q oilasida knyaz oilasida tug'ilib voyaga yetadi va 1978 yil 28 aprelda vafot etdi. U aristokrat oilasida, pushtunlik muhammadzay qabilasida dunyoga keladi. Afg'aniston qiroli Nodir Shoxning o'gay akasi edi. Muhammad Dovud Afg'onistonning eng nufuzi baland bo'lgan urug'ida voyaga yetadi. Kichik ukasi – sardor Muhammad Naim (1912 – 1978) Muhammad Dovudni ikkinchi o'rinbosari va 1953 – 1963 yillarda ichki ishlar vaziri shuningdek, 1973 – 1978 yillarda Muhammad Dovudning maxsus vakili lavozimlarida ishlagan. 1933 – 1973 yillarda qurol bo'lgan Zohirshox uning amakivachchasi edi. Hamda Muhammad Dovud uning singlisiga uylangandi. Dastlabki ta'limni Qobulning ingliz tiliga ixtisoslashgan "Habibiya" litseyida oladi.³² 1921 (yoki 1922) yil Fransiyada yashab o'sha yerda harbiy maktabda tahsil olgan. 1930 yilda Afg'onistonga qaytib kelib, Qobul harbiy akademiyasini tamomladi. 1932 yilda general-mayor va Janubiy provinsiya (Paktiyo)da garnizon komandri bo'ldi. 1933 yilda shu provinsiyaning gubernatori bo'ldi. 1935 yil iyulda dviziyaning ikkinchi darajali generali (general-leytenant), Qandaxor provinsiyasi gubernatorining o'rinbosari va Qandaxor va Farax provinsiyalarining jangchilar qomondi bo'ldi. Qandaxor provinsiyasini boshqaruv apparatini tuzishda faol ishtirok etdi va pushtun tilini

³² Muhammad Ali. Progressive Afghanistan.-Lahore: Panjab Educational Electric Press, 1990. P. 73

yagona davlat tili bo'lishini qat'iy talab qilishdi. 1938 yilda janubiy provinsiyalarning general gubernatori bo'ldi. 1939 yilda Kobulda qo'shinlarni joylashtirish bo'yicha Markaziy korpusning qo'mondoni va Kobul Harbiy akademiasining derektori bo'ldi. Ikkinchi jahon urushi boshlanishi bilan u pushtun qabilalarni birlashtirish va Afg'oniston va Angliya Hindistoni o'rtasidagi Duyurand chegarasiga anqlik kiritishda natsislar Germaniyasi yordamidan umid qilib natsizmni yoqlab chiqadi.

1946 yilda Muhammad Dovud amakisi Shox Mahmuddan ichki ishlar varizi lavozimini qabul qilib oldi. Lekin oradan bir yil o'tib bosh vazir bilan fikrlari to'g'ri kelmasdan bu lavozimni topshirdi va Afg'onistonning Franstiyada elchisi bo'lish bilan birga Shveytariya va Belgiyada Afg'anistonning elchisi bo'lib faoliyat yurita boshladi. Muhammad Dovud Afg'oniston davlatchilik tarixiga kirib kelar ekan bu davrda (1948-1951 yillarda) mudofa vaziri bo'ldi. 1951 yilda yana bosh vazir Shox Maxmudxon bilan kelisholmasdan ishdan bo'shadi.

1953 yil sentyabrda Zohir Shox siyosiy tartibsizlik va iqtisodiy muammolarni bartaraf qilolmaganligi uchun Shox Mahmudni ishdan chetlatib o'rniga Muhammad Dovudni bosh vazir hamda bir paytning o'zida mudofa vaziri qilib tayinladi.³³ Muhammad Dovud Afg'oniston davlatchiligida o'zining bosh vazirlik davrida Afg'anistonda unga qarshi ko'plab fitnalar uyushtirildi. Rasmiy tergov boshlandi va tergov mobaynida fitnaga aloqador ba'zi amaldorlar va unga aloqador zobitlar aniqlandi. Ko'p o'tmay milliy mudofaa vazirligi ularni hibsga olishga va davlatga xiyonat uchun sudga tortishga rozilik berdi. Ammo bu muammoning yakuniy yechimi shohning Angliya va Italiyadan qaytishigacha to'xtatib turildi: Shoh u yerga 25 iyunda davolanish va dam olish uchun uchib ketgan edi. Shu o'rinda, u bilan Angliyaga bu paytda Markaziy korpusda qo'mondonlik qiluvchi general Abdul Valiy ham jo'nab ketdi. Biroq u 5 iyulda shoshilinch ravishda uyiga qaytib keldi: bu qaytish monarxiyaning asoslariga

³³ Ahmed Rashid, "Kabul", 2002, (LINK): "...The last time Zahir Shah saw Kabul it was an international diplomatic backwater, but a thriving, bustling town where the elite..."

bo'lgan tahdidning namoyon bo'lishi bilan bog'liq edi. Kobulga kelganidan so'ng u faol ravishda tergov jarayonini boshqardi.

Monarxiyaga qarshi harbiy muxolifat ishtirokchilariga muvaffaqiyatsizlik va jismoniy yo'q qilinish jiddiy ma'noda xavf solib turar edi.³⁴ Mavjud sharoit ularni o'ylangan operatsiyani amalga oshirishni tezlashtirishga majbur qildi; shunga qaramay ular katta xavf-xatarga qarshi borishayotganini juda yaxshi bilishar edi. Gap shundaki, monarxiya bu vaqtda hali ham mavjud tartib-qoidalarni himoya qilish uchun ko'plab vositalarga ega edi. Til biriktiruvchilarga ma'lum bo'lishicha, saroy aristokratiyasining qurolli kuchlardagi eng nufuzli vakillari, xususan general Abdul Valiy, armiyadagi "portlash"ning yaqinligini sezib, o'z navbatida, armiya va jandarmeriyadagi o'zlariga sodiq harbiy qismlar yordamida "oldini oluvchi ust to'ntarish"ni amalga oshirishga (buni, o'zni kelganda, general Abdul Valiyning otasi – marshal Shoh Valiy hibsda tasdiqlagan edi),³⁵ mamlakatda harbiy diktatura rejimini o'rnatishga, fuqaroviy va harbiy muxolifatni jismoniy ravishda jazolashga va shu tariqa monarxik tuzumni qutqarishga tayyorgarlik ko'rayotgandilar. Ayon bo'lishicha, agar saroy oldinroq harakat qilib, vaqtli zarba berganda, qarshi kurashuvchi taraflar orasida bu asnoda armiyadagi mavjud kuchlar taqsimoti bilan bu rejaning muvaffaqiyati tamoman aniq bo'lishi mumkin edi. Ammo, monarxiyaga qarshi kayfiyatdagi zobitlar bu chiqishda monarxiya himoyachilaridan bir necha kun oldinroq harakat qilib, tashabbusni o'z qo'llariga oldilar va bu bilan o'z ustunlik va g'alabalarini ko'p jihatdan ta'min etdilar. Shu bilan bir vaqtda hukumat a'zolari va oliy harbiy qo'mondonlik bilan harbiy qismlar, politsiya va jandarmeriya orasidagi butun aloqa yo'llari kesib qo'yildi (bu vazifani amalga oshirishda Afg'oniston Xalq Demokratik Partiyasi (AXDP) a'zosi kapitan Alim Jon bilan birga harbiy mutaxassislar hal qiluvchi rol o'ynadilar) hamda e'tiborli noharbiy va harbiy

³⁴Ислах-Анис. – 1973, 18 июля; ДыУрдуМаджалла. – 1973. – No 1 (616 – 617). – С.3-6; President and Prime Minister M.Doud's Speeches of July 17 and August 23, 1973. – Kabul: Government Printing Press, 1973. – P.1-3.

³⁵ Anwar R. The Tragedy of Afghanistan: A First-Account. – London: Verso, 1988. – P.260

arboblar hibsga olindilar (shu jumladan bosh vazir Muso Shafiq boshchiligidagi butun vazirlar mahkamasi, “AMB guruhi”ning³⁶ ba’zi yetakchilari, Qobul radiosida M. Dovud chiqish qilib, mamlakatdagi monarxik rejimning tugatilishi va Afg’oniston Respublikasi e’lon qilinishini ma’lum qildi. Armiyaning jalb qilinishiga doir sabablarni tushuntirar ekan, u to’ntarishdan oldingi o’n yil davomida iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalarda va boshqaruv tizimida mamlakatning butunlay xarob holatiga kelib qolganligini hamda “xalqning qadim va muqaddas orzu-umidlari avval boshdan shaxsiy va sinfiy manfaatlarga, aldov va hiyla-nayranglarga, yolg’on va ikkiyuzlamachilikka asoslangan soxta demokratiya bilan almashtirilganligi” va buning natijasida “demokratiyaning anarxiyaga, konstitutsiyaviy monarxiyaning esa mustabid rejimga aylanganligi”ni ta’kidlab o’tdi. *Modomiki*, dedi u so’zida davom etib, *“rejim va davlat apparati isloh etib bo’lmaydigan darajada ichdan buzilib, chirib bo’lgan ekan, ... butun vatanparvarlar, xususan, Afg’oniston vatanparvar armiyasi, bu inqirozga yuz tutgan tuzumga barham berishga va mamlakatni baxtsizliklar girdobidan olib chiqishga qaror qildilar”*. Yangi hukumatning kechiktirib bo’lmaydigan vazifalari orasida Muhammad Dovud “Afg’onistonning xavfsizligini ta’minlash va milliy suverenitetini saqlash” hamda “tub o’zgarishlar”ni amalga oshirish kabilarni sanab o’tdi.³⁷ Tashqi siyosat haqida gapirar ekan, uning betaraflik va qo’shilmaslik, yer yuzining butun xalqlari bilan xalqaro tinchlikka va an’anaviy do’stlikka sodiqlik tamoyillariga asoslanishini aytib o’tdi. Shu borada u, o’z so’zi davomida, Afg’oniston-Pokiston munosabatlaridagi “yagona siyosiy kelishmovchilik” bo’lgan pushtun muammosidan tashqari Afg’onistonning dunyo mamlakatlari bilan biron-bir yechilmagan muammosining yo’qligini alohida ta’kidlab o’tdi.³⁸

³⁶ АНБ – Афганский национальный банк, созданный в 1933 году, являлся государственно-частным учреждением. В последующем на его основе образовалось могущественная в Афганистане финансово-торгово-промышленная «группа АНБ».

³⁷ М.Ф.Слинкин – «Государственный переворот 1973 г. в Афганистане. Симферополь, 1999. с. 128-131

³⁸ Ислах-Анис. – 1973, 18 июля; ДыУрдуМаджалла. – 1973. – No 1 (616 – 617). – С.3-6; President and Prime Minister M.Doud’s Speeches of July 17 and August 23, 1973. – Kabul: Government Printing Press, 1973. – P.1-3.

Muhammad Dovudning bu chiqishi monarxiya tarafdorlarini tushkunlikka soldi. Ustunlikning yangi hukumat tarafida ekanligini his qilgan betaraf zobitlar ham u tarafga o'ta boshladilar. Kun oxiriga kelib mamlakatning deyarli butun olis garnizonlari to'ntarishni qo'llab-quvvatlashlarini bildirdilar. Albatta, bu yerlarni ham poytaxtda bo'lgani kabi eng jonboz monarxistlarni hibsga olish va izolyatsiya qilish voqealari chetlab o'tmadi. Shuni aytish kerakki, to'ntarishni amalga oshirish jarayonida sulola tarafdorlari bir necha marta isyonchi zobitlarning chiqishlarini to'xtatib qolishga yohud hatto ularning qo'mondonligi ostidagi qismlarni isyonchilarni bostirish uchun qo'zg'atishga harakat qildilar. Bunday muvaffaqiyatsiz urinishlarni, masalan, "kommandos" batalyoni komandiri mayor Safiy, qirollik gvardiyasi shtabi boshlig'i, 8 piyoda askarlar diviziyasi komandiri, Markaziy korpus komandiri general Abdul Valiy va boshqalar amalga oshirishga urindilar. Isyonchilarga qurolli qarshilik asosan bank, telegraf, Dimazang qamoqxonasi va boshqa ba'zi obyektlarni qo'riqlovchi politsiyachilar tarafidan ko'rsatildi.³⁹ Bulardan uchasi, 24 iyuldagi press-konferensiyada ularga aytilgan Muhammad Dovudning so'zlariga ko'ra, qurol-yarog' bilan ehtiyotsiz munosabatda bo'lish qurboni bo'lishgan; 15 tank brigadasidan bir zobit-tankchi esa tankning baland qirg'og'idan Kobul daryosiga qulab tushishi natijasida (aftidan, mexanik-haydovchining tajribasizligidan) halok bo'lgan.⁴⁰ Bu raqamlarga nima uchundir to'pponcha bilan tahdid qilib, isyonchilarning "esini kirgizib qo'ymoqchi" va to'ntarishga xalal bermiqchi bo'lgan paytda ular tomonidan otib tashlangan qirollik gvardiyasi shtab boshlig'i kirmay qolgan. Ehtimol boshqa qurbonlar ham bo'lgandir. Shunday bo'lsa ham, Muhammad Dovudning to'ntarishi deyarli qon to'kishsiz amalga oshirilgani haqidagi fikriga e'tiroz bildirish uchun biror asos topish qiyin.⁴¹ Muhammad Dovud Afg'oniston davlatchiligida davlatni bir muncha yuksalishga

³⁹ М.Ф.Слинкин – «Государственный переворот 1973 г. в Афганистане». – Симферополь, 1999. С. 143-145

⁴⁰ ДыУрдуМаджалла. – 1973. No 1 (616-6170). – С. «Б» и 8; KabulTimes. – 1973, July 25.

⁴¹ ДыУрдуМаджалла. – 1973. No 1 (616-6170). – С. «Б» и 8; Kabul Times. – 1973, July 25.

olib kelgan hukumat rahbari bo'lgan Dovud hamma sohalarda yaxshi natijalarga olib chiqqan.⁴²

Mamlakatda respublika e'lon qilinishini ijobiy harakat deb baholab, Xalq markaziy qo'mitasi "*monarxiyani ag'darish uchun Afg'oniston Xalq-demokratik partiyasi va boshqa demokratik kuch va unsurlar qulay zamin hozirlagani*"ni ta'kidlab o'tdi.⁴³ Parcham markaziy qo'mitasi, bundan tashqari, respublika rejimining progressiv yo'lini amalda joriy qilishda ko'maklashish maqsadida partiya a'zolariga yangi davlat apparatida turli lavozimlarni egallashga ruxsat berdi. O'z-o'zidan ko'rinib turgan iqtisodiy sabalardan tashqari, siyosiy elitaning mamlakatni boshqarishdagi zaifligi va qobiliyatsizligi, ma'naviyat va madaniyat namoyandalarning mamlakatni rivojlantirishning qadriy asoslarini ta'lim berish va joriy qilishning uddasidan chiqa olmaganligi hamda o'z orasidan davlatni to'g'ri boshqarishga tayyor kishilarni ajrata olmagan millatning zaiflashuvi ham katta rol o'ynadi.

Afg'onistondagi bu kabi inqiroz Afg'onistonning yangi va eng yangi tarixida birinchi marta yuz berayotgani yo'q. Avvaliga Afg'oniston XIX asrning birinchi yarmida Durroniylar hukmronligining yiqilishi bilan larzaga keldi. U paytda inqiroz davri chorak asr davom etdi. Uning ortidan uzoq vaqt qayta tiklanish jarayoni amalga oshdi va u XIX asrning oxirida Abdurrahmonxon davrida kuchaydi. Yangi inqiroz va afg'on jamiyatining deyarli butunlay tanazzulga yuz tutishi fuqarolik urushi bilan barham topgan Omonullanning 1919-1928 yillardagi islohotlaridan so'ng ro'y berdi. Omonullaxon davrida mamlakat elitasining ongidagi amir-podshoh hokimiyati davlatning yaxlitligi va barqarorligini ta'minlash hamda Allohning irodasini amalga oshirish uchun zaruriy, muqaddas institut ekanligi tushunchasi yemirila boshladi. Habibullaxon davridayoq mamlakat elitasining yevropalashishi va xalqdan uzoqlashishi boshlandi. Misol uchun bo'lajak bosh vazir va prezident Muhammad Dovud Parijda tahsil olgandi, ammo an'anaviy afg'on ta'limini – diniy ta'limni

⁴² М.Ф.Слинкин – «Государственный переворот 1973 г. в Афганистане».)симферополь 1999 гс 149-151

⁴³ Заявление ЦК НДПА (авангарда рабочего класса страны) от 17 июля 1973 г. – Кабул, 1973. – На языке дари (листовка).

olmagan edi. Keyinroq Afg'onistonda dunyoviy va yevropalashgan elita hamda dindor va an'anaviy afg'on xalqi orasida chuqur ajralish boshlandi. 1926 yilda amirlik bekor qilingandan so'ng mamlakat g'arb andozasi bo'yicha monarxiya tuzumiga o'tkazila boshlandi. Nodir Shoh mamlakatdagi vaziyatni to'g'ri yo'lga sola oldi. An'anaviy institutlarga (qabilalar, ruhoniylar) suyanish qayta tiklandi. Nodirshoh mamlakatni tinchlantirish, parlamentning vakolatini islomiy ijmo – hukmdorning xalq bilan maslahatlashishi tamoyiliga muvofiq kengaytirish, ruhoniylarga ularning alohida huquq va imtiyozlarini qaytarish kabi ishlarning uddasidan chiqqa oldi. Ammo urug'lar orasidagi nizolar va podshohning buyrug'iga binoan amalga oshirilgan qonunsiz qotilliklar uning o'limiga olib keldi. Davlatni 19 yoshli Zohir Shoh boshqardi, biroq uning davrida yigirma yil davomida asl hukmdorlar uning amakisi Hoshim Xon va Shoh Mahmud edi. XX asrning 30-yillari kengayib borayotgan totalitar dunyo bayrog'i ostida o'tdi.

Afg'onistonga ham SSSR, ham Germaniya, ham Italiya katta ta'sir ko'rsatdi. Bosh vazir Hoshim Xon akasi tomonidan o'rnatilgan tamoyillardan (Islomni davlatning o'zagi ekanligi, qabilalarga, ruhoniylarga tayanish, katta davlatlar siyosatidan uzoq turish) pushtun millatchiligi tomonga chekina boshladi. Pushtunlar oriylarning avlodi va vorisi ekanligi haqida nazariya ishlab chiqildi, pushtu tilini rivojlantirish va mamlakatning shimoliy va markaziy rayonlarini pushtunlashtirishga katta e'tibor qaratila boshlandi. Bunga parallel ravishda ko'plab afg'onlarning chet elga o'qishga ketishi davom etdi, 30-yillarning oxiriga kelib esa armiyada va davlat apparatida anchagina german maslaxatchilari mavjud edi.

Bunday holat shohning amakivachchasi Muhammad Dovud bosh vazir bo'lgan 50-yillarning ikkinchi yarmida ham yuz berdi. Bu vaqtda mamlakat urushdan keyingi iqtisodiy inqiroz va 1947-1952 yillardagi Shoh Mahmud hukmronligi davrida siyosiy sohani liberallashtirishning ilk urinishlarini boshida o'tkazdi. Bularning muvaffaqiyatsizligi sardor Dovudning 1953 va 1963 yillar orasida talablarni kuchaytirishiga, bunga parallel o'laroq xorijiy, asosan sovet

ko'magiga tayanib, yirik iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishiga olib keldi. Hukmronlik qilayotganlarning davlatida pushtun millatchiligi mafkurasi saqlanib qoldi.

Mamlakatga tashqi kuchlarning – SSSR, Xitoy va AQSh ning (afg'on talabalari o'qish uchun shu yerlarga ketishar edi; misol uchun 1956 va 1977 yillar orasida Afg'oniston zobitlik korpusining uchdan biri SSSR da tayyorgarlik o'tkazgan edi) katta ta'siri ziyolilar orasida so'l va liberal qarashlarning yoyilishiga olib keldi. Qayta jonlangan Islom dunyosi bilan bo'lgan aloqalar esa Qobul Universitetining Ilohiyot fakulteti negizida "Musulmon yoshlari" radikal harakatining tuzilishiga olib keldi. Dovud ichki va tashqi siyosiy muammolar majmuini hal etishning uddasidan chiqolmadi va 1963 yilda iste'foga chiqarildi. Mamlakatni Zohirshohning o'zi boshqardi; u uch alternativadan (so'l-radikal bo'lgan sovet, liberal amerikan va o'ng musulmon) o'zining ruhiga va ta'limiga yaqinroq bo'lgan liberal mafkurani tanladi. Biroq, islohotlarning tahlikali yo'lga kirib, podshohlik saroyining vakolatlarini cheklovchi konstitutsiyani tortiq qilib, keng ijtimoiy qatlamlarga tayanishga intilgan holda jamoat harakatlari faoliyatiga ruxsat berib, Zohir Shoh o'ziga yuklangan katta mas'uliyatni – islohotlar bilan zaiflashib qolgan mamlakatda barqarorlik kafolati bo'lish vazifasini uddalay olmadi. U asta-sekin xalq orasidagi shuhratini yo'qotdi, uning hukumat islohotlarning uddasidan chiqa olmadi, liberal mafkura esa qabila elitasi, xalq va ruhoniylar tomonidan qabul qilinmadi. Garchi u pushtun millatchiligi muammosining ta'sirini kamaytira olgan bo'lsa-da, xalqni birlashtiruvchi yangi mafkura bera olmadi.

Monarxning obro'siga uning Giloniy hazratlari urug'i boshlig'ining qarindoshi bo'lgan ayol bilan nikohsiz munosabati jiddiy putur yetkazdi. Qayd etish kerakki, shariatga ko'ra, noqonuniy ishqiy munosabat uchun uylangan erkak o'lim jazosiga, turmushga chiqmagan ayol esa yuz darra qamchi jazosiga duchor qilinishi mumkin. Butun Kobul jamiyatining ko'z o'ngida esa podshoh shunday munosabatga ega edi. Shoh va uning liberal islohotlariga tanbeh

sifatida musulmon ruhoniylari 1970 yil mayidagi ommaviy namoyishlarni tashkil etdilar va ularda podshohni ayblovchi ko'plab nutqlar yangradi.

Hukumat tarafdori partiya tuzishdan bosh tortgan va har qanday siyosiy partiya faoliyatini taqiqlab qo'ygan shoh o'ziga keng jamoatchilik tayanchini topa olmadi. Armiya zobitlari yo markscha-lenincha mafkura bilan ishontirilgan, yo shohga qarshi fitna uyushtirishda davom etgan sardor Dovudni qo'llab-quvvatlar edilar. Parlament ishtirokchilari ham o'z shaxsiy muammolarini hal qiladigan "gap bozori" ga aylanib qoldi.

Shunday qilib, Afg'oniston tarixida eng uzoq hukm surgan hukmdorlardan biri bo'lgan (40 yil) Zohir Shoh, fuqarolik urushidan keyin qayta tiklangan mamlakatni qabul qilib olgan holda, o'zgarayotgan tarixiy sharoitlarda monarxiyani qulashdan to'xtatib qola olmadi. Zohir Shoh hukmronligining birinchi davrini (1933-1963) istibdod sifatida ta'riflash mumkin. U paytda yo'l qo'yilgan eng asosiy xato mamlakat aholisining islomiy-qabilaviy o'zligini pushtun millatchiligi mafkurasiga almashtirish edi. Nodir Shoh tomonidan e'lon qilingan xalq bilan maslahat tamoyiliga rioya qilmaslik ham jiddiy muammo edi. Muvaffaqiyatsiz ilk liberalizatsiya urinishi va bosh vazir Dovudning bundan keyingi avtoritar rejimi jamiyatda "demokratik tajriba" jarayonida bug' kabi ajralib chiqqan ko'plab hal qilinmagan ziddiyatlarga sabab bo'ldi. Hukmronligining ikkinchi bosqichida, g'arb andozasidagi konstitutsion monarxiya qurish yo'liga kirgan Zohir Shoh pushtun millatchiligi muammosining keskinligini bartaraf eta oldi, biroq o'zga tuzumga qadriyatlar bermadi va uni an'anaviy asoslar hisoblangan ruhoniylarning ko'magi, islomiy o'zlik, qabilalarning sadoqati, sodiq armiya hamda xalqning hurmati va e'tibori kabilarning quvvatidan mahrum qildi.⁴⁴ Boshqa tomondan, xalq o'z orasidan davlatni qo'llab-quvvatlaydigan va samarali ravishda isloh qiladigan yetarli miqdorda hurmatga sazovor kishilarni chiqara olmadi. Parlament a'zolari

⁴⁴ *Пойя С.* Основные аспекты новой экономической политики премьер-министра Афганистана Мухаммад Дауд-хана (1953-1963 гг.) Общество и политика. М, 2012. № 1. С.35-43

o'zlarining shaxsiy muammolarini yechish bilan band bo'lib, "prinsipial" bo'lib qolgan edilar, ya'ni har qanday masalada podshohga va uning hukumatiga muxolifatchilik qilardilar.

Natijada, monarxiyaning muhimligi va zaruriyligi tushunchasi tamoman yer bilan bir bo'ldi. Muhammad Dovud podshohni ag'darganda, hech kim monarxiyani va shohni himoya qilmadi. An'anaviy Afg'oniston tarixining ikki yuz oltmish besh yillik davri nihoyasiga yetdi. Mamlakat hozirgacha davom etayotgan chuqur inqiroz pallasiga kirdi.

Xulosa: Afg'oniston davlatchilik tarixida XX- asirning 50-60 yillarida o'zining rivojlanishing bir qancha bosqichlarga yuksalish davri bo'ldi. Bu davirda o'zining hukumdorligini olib borayotgan Muhammad Zohirshoh Afg'anistonda bir qancha o'zgarishlar sodir bo'ldi. Zohirshoh hukumronligi davrida Afg'oniston monarxiya davri deb etirof etilgan. Aynan Zohirshoh davri Afg'onistonda "oltin asri" bo'lganligini bilish mumkin. Bu davirda Afg'onistonda barcha kichik va katta millatlarning teng totuv yashashiga erishgan. Lekin aynan Zohirshoh hukumronligi vaqtida mayda millatlar o'z siyosiy huquqlarini talab qilib turli siyosiy partiya va tashkilotlarni tuzdilar diniy ruhoniylar hukmron doiralarning siyosatidan norozi bo'lib hukumdor doiralarga qarshi nomayoishlar olib borganlar. Zohirshoh boshqaruvi davrida afg'on jamiyatini zamonaviylashtirish borasida islohotlar o'z natijasini bergan. Zohirshoh hukumronligi davrida hukumatga ko'plab chet el maslaxatchilar taklif etildi birinchi zamonaviy universitetga asos solindi. Zohirshoh davrida ayollar ta'lim olish va saylash imkoniyatiga ega bo'ldilar, shohning oila a'zolari hukumatda biror bir mansabni egallashni man etildi. Yevropa bilan madaniy va savdo-iqtisodiy aloqalarni kuchaytirdi. Sanoatni rivojlantirish qishloq xo'jaligini yangilash borasida chora tadbirlar amalga oshirildi. Ayollarga chodra o'rash majburiyati bekor qilindi. Afg'oniston davlatchilik tarixida aynan XX asrning 50-60 yillarida o'zining rivojlanish bosqichining hamma sohalarida ancha yuksalishi kuzatilgan va o'zining tinch totuv davrini boshidan o'tkazgan.

II BOB. MUHAMMAD DOVUDNING MODERNIZATSIYA SIYOSATI VA UNING O'ZIGA HOS XUSUSIYATLARI

2.1. Muhammad Dovudning modernizatsiya siyosati va uning asosiy bosqichlari

Muhammad Dovud bosh vazir bo'lgandan keyin davlat boshqaruvi va iqtisodiy hayotni rivojlantirgan holda mamlakatni modernizatsiya qilishni ko'zda tutuvchi “ boshqariladigan iqtisodiyot” deb nomlangan dastur ishlab chiqdi. Mamlakatda iqtisodiyotni rivojlantirish uchun chetdan katta miqdorda kapital jalb qilish va shuningdek milliy kapitaldan bular jumlasiga davlatda kichik va o'rta biznesni rivojlantirish va iqtisodiyotni rivojlonishi uchun katta imkoniyatlar yaratdi.⁴⁵ Davlat boshqaruvi apparati mamlakatni rivojlantirish uchun ikkita besh yillik dastur ishlab chiqdi. Bu vaqt ichida afg'on milliy sanoati rivojlantirildi. Masalan Kobulda shlakoblok va asfalt zavodi shuningdek, non konbinati, Jalolobodda esa shakar zavodi va ikkita sement zavodi va boshqa sanoat korxonalari qurib ishga tushirildi. 1960 yilda Gulbahar provinsiyasida katta tekstil zavodi ishga tushirildi. Saborda IES va Kobul va Qandaxorda xalqaro aeroport bunyod qilindi. Modernizatsiyadan keyin Kobul va Qandaxor provinsiyalaridagi shaxtalarda ko'mir qazib chiqarish ikki marotaba ko'paydi.

Aholining yashash sharoiti yaxshilandi. O'quv yurtlarining soni oshdi va ayollarning paranji yopinib yurish majburiyatlari bekor qilindi. Bu diniy rahnamolarga yoqmadi natijada bir qator din hizmatchilari qatl qilindi yoki qamoqqa olindi.

Muhammad Dovudning pushtun millatchiligi afg'on-pokiston munosabatlarining keskinlashishiga olib keldi. Shunda AQSh hukumati Pokistonga yordam qo'lini cho'zdi. Buning natijasida Afg'oniston xukumati tezlik bilan ikkinchi gegemon davlat Sobiq Ittifoq bilan munosabatlar

⁴⁵ *Пойя С.* Основные аспекты новой экономической политики премьер-министра Афганистана Мухаммад Дауд-хана (1953-1963 гг.) // Общество и политика. М., 2012. № 1. С.11-26.

o'rnatishga urina boshladi. 1955 yilda SSSR tomonidan Afg'oniston iqtisodiyotini rivojlantirish uchun 100 million imtiyozli kredit ajratildi. SSSRning qo'llab quvvatlashi bilan Muhammad Dovud bosh vazir lavozimidan bo'shagandan keyin bir qator qurilish ishlari (Kushka-Hirot-Qandaxor orasida avtotrassa, Nagluda mamlakatdagi eng katta IES va Nangarxorda kompleks qishloq xo'jalik va sug'orish inshootlari kompleksi qurildi) amalga oshirildi. 1956 yilda Afg'oniston va Rossiya o'tasidagi o'zaro shartnomalarning umumiy summa aylanmasi 32,4 millionni tashkil qildi. Afg'on ofitserlari ittifoq harbiy bilim yurtlarida malaka oshirdi. Natijada Afg'oniston bosh vaziriga AQShda "qizil shahzoda" deb laqab qo'yildi.

1962-1963 yillarda Afg'oniston siyosatining elita qismi vakillarining noroziliklari afg'on-pokiston o'rtasida o'zaro munozalar keskinlashdi (Muhammad Dovud xukamti Pokiston xududiga partizanlik urushini keltirib chiqarish uchun maxsus dversantlarni tashladi). Muhammad Dovudning aftartar boshqaruvi qirollik oilasi va qirol Zoxir-Shox bilan munosabatlari yomonlashdi. Ayni shu vaqtda o'ng va chap qanot oppozistiya vakillarining kuchli bosimi bosh vazirga katta kuchga ega bo'lgan xalq kuchiga suyanishga imkon bermasdi. 1963 yil 3 martda Muhammad Dovud bosh vazirlik lavozimidan bo'shadi. Amerikalik olim L. Pullad Muhammad Dovudning "moderninastiya isloxoti to'g'risida u shunday deydi: u bu isloxotni o'zi yaratdi va uni muvofaqqiyatli amalga oshirdi va yaxshi shart-sharoit yaratdi. Uning boshqaruv tizimi anarxizm bo'lib, Afg'oniston milliy davlatchilik evolyustiyasiga uchun xizmat qildi".

60-yillarning boshlarida shubhalarga qaramasdan ho'jalik, qurilish va mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotda oldinga siljish kuzatildi. Muhammad Dovudning hukumati ichki siyosatni aniq belgilab oldi va uning eskirgan davlat boshqaruv institutini isloh qilish, shuningdek jamiyatni demokratlashtirish borasida olib borgan siyosati natijasida o'rta ishchilar sinfining ijtimoiy ahvoli

biroz yengilashdi.⁴⁶ Bu esa o'rta liberal-burjuaziya va mamlakatning taraqqiyparvar guruhlarining yordamidan mahrum bo'ldi. Ehtimol bu holat unga bosh vazirdan hokimiyat tepasiga kelishida muhim ahamiyat kasb etgandir. Uning ichki va tashki siyosatidagi g'arblashishga urinishi afg'on jamiyatining noroziligiga sabab bo'ldi. Ular Muhammad Dovud hukumatni Afg'oniston va Pokiston o'rtasidagi munosabatlarni yomonlashtirganligi, g'arb davlatlari bilan o'zaro savdo aloqalarini cheklaganligi va Muhammad Dovud siyosatining iqtisodga aralashganligini tanqid qila boshlashdi. Muhammad Dovudga qarshi bo'lgan oppozitsiya nufuzli klerikal doira vakillari orasida ham mavjud edi.

1963-1973 yillarda davlatga qarshi ishlar harkatlarni amalga oshirdi. Shuningdek qirol bilan aloqalarini uzib mahfiy ishlar bilan shug'ullandi. Biroq u o'z obro'sini komandirlar va kichik ofitserlar o'rtasida saqlab qoldi. 1960 yillarning o'rtalarida Muhammad Dovud radikal kayfiyatda bo'lgan chap qanot kichik ofitserlari bilan monarxiyaga qarshi kurash asosida birlashishga harakat qila boshladi. Qirol va uning hukumati mamlakat boshqaruvida o'quvsizligi tufayli qishloq ho'jaligidagi ikki yillik hosil bo'lmasligi, qishning qattiq kelishi va qurg'oqchilik tufayli chorva mollari sonining keskin tushib ketishi, 70-yilning boshlariga kelib yuzaga kelgan inqiroz monarxiya boshqaruvini tugatishga ishonchni kuchaytirdi. Aynan shu yilda Muhammad Dovud antimonarxist guruhlar, yosh oppozitsioner harbiylar va chap qanot radikal guruh vakillari bilan o'zaro aloqalarni o'rnatdi. Muhammad Dovud aftaritar rejimi o'rnatdi. Siyosiy to'tarishdan keyin Parlament va Yuqori sud tarqatib yuborildi. Dovud rejimining asosiy g'oyasi "xalq va millatning reovolyustiya g'oyasi" bo'ldi. Afg'oniston tarixi va siyosati bo'yicha mutahassis M.F. Slinkinning fikricha: strukturani amalga oshirishda qattiq qo'llik qilinmadi va monarhiyaning yo'q qilmadi uni boshqacha ko'rinishda qayta ishlab chikdi. Afg'on millati ruhiyati, urf-odatlar va pushtun qabilalarining o'ziga hos bo'lgan islom, demokratiya, qonun ustuvorligi muqaddas urf-odatlar va qadiriylar

⁴⁶ *Пойя С. Основные аспекты новой экономической политики премьер-министра Афганистана Мухаммад Дауд-хана (1953-1963 гг.) Общество и политика. М., 2012. С.16-26.*

koliyaniya bo'lishga va komunizmga qarshi muqaddas tarixiy asoslari bunday tuzumni o'rnatishga imkon bermasdi.⁴⁷ Lekin yangiliklar bo'ldi. Muhammad Dovudning davlatining elementlari sostolistik davlatga hos edi. xaqiqatdan ham uning davlatida sotsializm edi. Faqat uning iqtisodiyotigina sostsiyolizm bo'lib "milliylik" va "islom" komponentlari bilan yug'rilgandi.

Muhammad Dovudning iqtisodiy siyosati derijyorlik boshqaruvidan tubdan farq qilardi, ya'ni uning davrida bir qator hususiy ishlab chiqarish sektorlari va barcha hususiy banklar davlat hisobiga nastionalizastiya qilindi. Hususan Spinzar tekstil fabrikasi shular jumlasdan 1965 yilda yer islohoti to'g'risida qonun qabul qilindi. Unga ko'ra tomorqa maydoni 20 gektardan yarmiga qisqardi. Keragidan ortiqcha yerlar yer egalaridan musodara qilinib dehqonlarga pul evaziga sotib yuborildi.

1977 yilda malakatning yangi konstitustiyasi qabul qilindi. Unda davlat boshqaruvida prezidentlik instituti kiritildi. Bir partiyali tuzum o'rnatilib Dovud tomonidan asos solingan Milliy inqilob partiyasi davlat boshqaruvini yakka hokim bo'lib amalga oshirish konstitutsiyada belgilab qo'yildi. Ayni shu vaqtda barcha chap radikal qanot arboblari bo'lgan yosh ofitserlar davlat boshqaruvini tark etishdi. 1977 yilda ko'p yillar davomida Muhammad Dovud g'oyalarining tarafdori bo'lib kelgan bosh vazir o'rinbosari Muhammad Hasan Sharq o'z lavozimidan ozod qilindi. Bir partiyali tuzimning yaratilgani chap qanot bo'lgan Afg'oniston xalq demokrtaik partiyasi tarafdorlarini g'azabini keltirdi. Muhammad Dovudning SSSR bilan aloqalari g'arb davlatlari va koservativ musulmon rejimi bilan yaqinlashishga shuningdek Pokiston bilan munosabatlarni o'ratcha holatga olib kelishiga xizmat qildi.

Monarxiyaning qulatilishi va respublika boshqaruvining o'rnatilishi mamlakat iqtisodiyoti va siyosatni qayta o'zgartirib yubordi. Shuningdek, agrar islohotlar qilindi va chap qanot vakillarinning davlat siyosatiga ta'siri darhol o'ng qanot konservativ-klerikal vakillarining ularga qarshi ish olib borishlariga sabab bo'ldi. Respublikaning dastlabki besh oyidayoqdavlatga qarshi ikkita

⁴⁷М.Ф.Слинкин – “Государственный переворот 1973 г. в Афганистане”.-Симферополь, 1999.С. 153-155

katta ko'lamdagi suiqasdlar fosh qilindi. Ulardan biri 1973 yil sentyabrda sobiq bosh vazir M.X. Mayvandval boshchiligida amalga oshirildi⁴⁸.

Suiqasdda gumon qilinib respublikada avvalgi 100 ta mashhur davlat arboblari hibisga olindi. Ular orasida beshta parlamentning sobiq a'zosi, to'rtta katta savdogar, 11 ta ziyolilar namoyandalari ulardan katta qismi yuqori martabali harbiylar bo'lib, xususan Harbiy Havo kuchlari va Havo Hujumidan Mudofa qo'mondonlari, hech qachon o'zining amerika borasidagi qarashlarini yashiramagan va AQShning Kobuldagi elchixonasining hamkori nafaqadagi general-polkovnik Abdurazzoq, Nangarxarning sobiq gubernatori nafaqadagi general-leytenant Hon Muhammad, politsiya va jandarmiyaning sobiq qo'mondoni general-leytenant Muhammad Rahim, polkovnik Zargun Shox, Said Amir, Koxat, Kovvat-xon Bridval va boshqalar bor edi.

Afg'on gazetalarining guvohlik berishicha bu suiqasd M.X. Mayvandvalning Pokiston hukumati bilan til biriktrib amalga oshirganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'rishimiz mumkin. Pokiston hukumati unga faqat iqtisodiy qo'llab quvvatlashdan tashqari qurol yarog'dan ham yordam bergan. Fitnachilarning rejalarida HHK yordamida respublikachilarning quruqlikdagi qo'shinining Kobuldagi qismiga zarba berishni rejalashtirishgan edi. Qandahor va joylarda shuningdek Afg'onistonning ichki hududlarida Kubulni egallash maqsadida ozodlik yurishlarini amalga oshirish ko'zda tutilgandi.

M.X. Mayvandval qamoqqa olingandan bir necha oy o'tib o'z kamerasida osib o'ldirildi. Berilgan rasmiy habarga ko'ra u o'zini o'zi o'ldirgan. Lekin bu versiyaga ko'pchilik shubha bilan qaradi. Suiqasdnining boshqa qatnashchilari esa harbiy tiribunalga topshirildi. 1973 yil dekabrda ulardan beshtasiga va M.X. Mayvandvalga ham qatl qilish hukmi chiqarildi. Qolganlar esa turli xil muddatlarga qamoqqa olindi. Ikki kishi oqlandi.

Ikkinchi u qadar havfli bo'lmagan suiqasdga mamlakat milliy havfsizlik kengashi sobiq rahbari monarxiya davridagi general ruhoniylar Habilloh Rahmon boshchiligida amalga oshirilmoqchi bo'lganligi lekin u 1973 yilning oxirida fosh

⁴⁸М.Ф.Слинкин – «Государственный переворот 1973 г. в Афганистане». -Симферополь, 1999. С. 159-161

qilindi. Bu ish bo'yicha 19 dekabrda 20 dekabrga o'tar kechasi 600 yaqin diniy arboblari, klerikal guruhlarining a'zolari, harbiylar, ziyolilar vakillari va aholining boshqa turli qatlam vakillari orasidan bo'lgan kishilar qo'lga olindi.

Qamoqqa olingan diniy rahnomalardan biri mavlaviy Fayzullohning uyida tintuv o'tkazilganda 100 dan ortiq chet el razvedka xizmatlari aloqalari bilan bog'lik hujjatlar topildi. Siukasd barbod bo'lgandan keyin bir qator jumladan injener Muhammad Imam, mavlaviy Habiburrahmon va boshqa bir qator fitnachilar Pokistonga qochib ketishdi⁴⁹.

Muhammad Doud hukumatiga qarshi chiqqan opzistiya "Yosh musulmonlar" guruhini ham egallab olishgandi. Bu vaqtda uning hukumati ikki kanot yoshlar (ekstremistlar) va "mo'tadillar" (faxriylar) vakillarining respublikachilarga qarshi kurashda turli yo'nalishda bo'linganligi tufayli ikki qismga bo'lingan edi. Ularning birinchi Muhammad Doudning "xudosizlar" hukumatiga qarshi kesin qarshi chiqqanligi, "komunistlarni" davlat boshqaruv organlaridan yo'q qilish va "chinakam Afg'oniston Islom Respublikasi" tuzish borasida kabi masalalarda ikki ajralishdi. Boshqa qanot vakillari esa qo'zg'olon ko'tarish va puxta o'ylangan harbiy to'ntarish qilish orqali hokimiyatni egallash kerakligini ta'kidlashdi. Biroq davlatning yuqori tashkilotlarini yoshlar qanoti vakillari egallagandi. Mamlakatdagi klerikal va konservativ doira a'zolari tomonidan ularni mukofotlar bilan takdirlab davlat hokimiyatiga qarshi fitnaga tayyorlashdi. Shu asoslarga tayanib armiyadagi tarafdorlarining oylik maoshlari sun'iy ravishda ko'tarildi. Navbatda keng ko'lamli fitnada radikal diniy rahnamolar va harbiylar tomonidan 1974 yil iyulda amalga oshirildi. Avvalroq milliy hafsizlik hizmati vakillari Dimazang provinsiyasidagi kutubxona peshtaxtasi va "Poli-Heshti" masjidi kutubxonasini tintuv qilish jarayonida juda muhim tashkilot olib borayotgan harakatlar, asosiy a'zolarining ismlari, uning markazi provinstiyada joylashganligi va shuningdek mavlaviy Gerat Fayzaning 1970 yil "Yosh musulmonlar" tashkiloti bilan o'zaro aloqa o'rnatganligi to'g'risida ma'lumotlar ko'lga olindi. Bu ish bilan bog'liq bo'lgan 300 ga yaqin

⁴⁹⁴⁹ М.Ф.Слинкин – «Государственный переворот 1973 г. в Афганистане». -Симферополь, 1999. С.163-164

kishi qamokka olindi. Ular orasida “Yosh musulmonlar” guruhining faollari va boliklari – injener Habiburrahmon (otib o’ldirish hukm kilingan), Fayzani va S. Nusratyor (ikkalasi ham umirbod kamok jazosiga hukm kilingan), G.M. Niyozibor edi. tergov ishlari natijasida bu kishilar turli fitnchi guruhlar va bir kator arab davlatlari bilan alokalar o’rnatishgan. Shuningdek, ulardan iktisodiy va kurol-yarok olishgan.

Ko’p sonli qamoqqa olingan fitnachilar va Muhammad Doud rejimini o’zgartirishga harakat qilib unga qarshi chiqqan konservator-kelerikal guruh vakillariga beshavkat munosabatda bo’lish to’xtatilmadi. Ozodlikda kolagan fitnachi guruh vakillari esa “Partizanlik harakati komitetlarini” tuzib hukumatga karshi harakatlarini davom ettirishdi.

“Yosh musulmonlar” tashkiloti vakillari va haraktlantirkvchilari (G. Hikmatyor, professor Gol Muhammad, B. Rabboni, Muhammad Najir Badaxshiy, Muhammad Nasim Tarek Muslimyor, injiner Abdul Alam va boshkalar) Pokistonga kochib ketib “Jamoati muslimin” ekstremistik huruhiga ko’shilishdi. Bu erda ular Muhammad Dovud hukumatiga karshi oppozistiya sifatida faoliyat olib borishdi. Xukumat rahbari Z. A. Buxutto ularga moliyaviy va kurol-yarokdan yordam berdi. Bundan tashkari “Yosh musulmonlar” guruhining faollari Pokiston mahsus hizmatining harbiy harakatlarida bevosita birgalikda harakat kilishdi va harbiy tayorgarlikdan o’tib “ilg’or jihodsilar” tashkilotiga asos solishdi.

1975 yil 21 iyulda “Yosh musulmonlar” Pansher vodiysida davlatga karshi kurolli ko’zg’olan boshlashdi. Keyin bu harakat Badaxshon provinstiyasida, Logar, Logmon, Paktiya va Nangarxardaham boshlandi. Vakti vakti bilan ular vakillari Afg’onistonning shimoli-sharqiy qismidagi provinstiyalarda “Afg’oniston mehnatkashlar federastiyasi tashkiloti”ning bo’lg’usi boshlig’i Baxriddin Baesning tarafdorlari bo’lgan qo’zg’olonchilarga duch kelishardi. Ular “Yosh musulmonlar” va Javid Shoaliyning doud tuzumiga qarshi kurashda tengi yo’q hamkoriga aylanishidi. Biroqqo’zg’olonchilarni mahalliy aholi vakillariqo’llab quvvatlamadi chunki ular qo’zg’olonchilarni

afg'on armiya bilan polistiyani arjatishganligi va hech qanday asosolarsiz ularni o'ldirishda ayblashdi.

“Yosh musulmonlar” ning ko'pchilik faxriylari janglarda vafot etishdi yoki harbiy tiribunalga topshirildi (100 dan ortiq kishi sud qilindi) yoki bo'lmasa Pokistonga qochib ketib siyosiy qochoq maqomini (muhojir) nomini olishdi. G'arb nashrlarida bu vaqtda Afg'anistonga qarshi qaratilgan 60-yillarning birinchi yarmi va 70-yillardagi ekstremistik harakatlarni 600 kishini yo'qqilish bilangina bartaraf qilishdi deb yoza boshlashdi⁵⁰. Ular bilan bir qatorda, shuningdek rahbarlardan biri Rahim Mahmudi osib o'ldirildi⁵¹.

Muhammad Dovud siyosatiga qarshi qaratilgan yana bir suiqasd 1976 yilning dekabr oyida kelerikal guruh vakillari va mamlakatdagi shia ruhoniylarining etakchisi bo'lgan uzviy aloqada bo'lgan, davlat artileriya boshlig'i va milliy hafsizlik boshvaziri bo'lgan Said Mir Ahmad Shox boshchiligida amalga oshirildi. Fitnachilar mamlakatda “progressiv islomni yoyadigan” va komunistlarning davlatga ta'sirini tak-tugi bilan yo'qqiladigan, Afg'onistonda teokratik davlat quradigan o'rta qatlam dindorlaridan tanlanadigan “taqvodor prezident” shiorini o'z oldilariga maqsad qilib olishdi.

⁵⁰Слинкин М.Ф. Афганистан: оппозиция и власть (60 – 70-е гг. XXв.).-Симферополь, 1999.С. 135-137

2.2. Muhammad Dovudning modernizatsiya islohatlarining afg'on jamiyatiga tasiri

Muhammad Dovudning Afg'oniston davlatchiligi tarixida olib borgan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va modernizatsiya islohatlari muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Muhammad Dovudning bu olib borgan siyosati tufayli afg'on davlatchiligida birqancha yutuqlar va rivojlanishga sabab bo'ldi. Muhammad Dovud Afg'onistonning XX asr tarixida yetuk (ilg'or) davlat va siyosiy arboblardan biri sifatida chuqur iz qoldirgan. Muhammad Dovud o'z davrida o'zining bilimi va ortirgan tajribalari tufayli SSSR ga Afg'onistonning elchisi sifatida yuboriladi, shuningdek o'rindoshlik bo'yicha Shveytsariya va Belgiyada ham diplomatik ishlarni olib boradi. 1948-yilda 40- yillar oxirida Muhammad Davud yirik afg'on tadbirkori va bankiri Abdul Majid Zabulining mo'maygina moliyaviy ko'magi yordamida " Milliy pushtun klub"ini tashkil etadi. Muhammad Dovud bu klub doirasida elita ziyolilar, zodagonlar, harbiylardan Shoh Mahmud hukumatiga qarshi bo'lgan siyosiy faol vatanparvar shaxslarni birlashtirishni ko'zlagan edi. Shoh Mahmud hukumatini tanqid qilish va zayiflashtirishni ko'zlagan klubning faoliyati Muhammad Dovudning mamlakatni modernizatsiya qilish tarafdori sifatidagi obro'sini sezilarli ravishda ko'taradi.⁵² Shu vaqtdan boshlab Muhammad Dovud chorak asr davomida afg'on davlatchiligida eng ko'zga ko'ringan shaxslardan biriga aylanadi. Muhammad Davud yangi hukumatni shakllantirgandan so'ng birinchi navbatda mamlakatda kapitalistik evolyutsiyani yengillashtirish va tezlashtirishni maqsad qiladi. Bunda u iqtisodiy hayotga davlatning faol aralashuvini, xorijiy ko'makdan keng foydalanish va bu ko'makni milliy kapitalga sarflash, jumladan kichik va yirik tadbirkorlarga taqdim qilish, iqtisodiyotni va ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishni ko'zda tutadi. Bundan tashqari Muhammad Dovud siyosiy institutlarni isloh qilishni, jamoat hayotini demokratlashtirishni, aholining ichki qatlamining sharoitini yengillashtirishni va'da qilgan edi. Muhammad Dovud dasturining bu qismi

⁵²Anis.- 1963,10 marta; cm.tj: EjegodnikBSE. 1974.- M: Sovetskayaensiklopediya, 1974.-C. 606.

demokratlar doirasida yaxshi kutib olindi. Natijada Afg'onistonda 60-yillar boshiga qadar davom etgan ochiq ichki siyosiy kurashda vaqtinchalik sokinlik davri boshlanadi.

Muhammad Dovudning nomi bilan Afg'oniston davlatining sezilarli ravishda iqtisodiy jihatdan rivojlanish davri, deyzrli butun bir o'n yillik (1953-1963) bog'liq edi. Bu davrni siyosiy ahamiyati jihatdan Afg'onistonning ilk o'n yillik mustaqillik yillari bilangina qiyoslash mumkin. (bu davrda Afg'onistonni islohatchi qirol Omonullaxon boshqarar edi.) Muhammad Dovud uchun bu davrda nafaqat iqtisodiy masalalar, balki kuchli afg'on qirolli kuchlarini shakllantirish hamda pushtun muommosiga jiddiy yondashish ustuvor bo'lgan.

Mamlakatning asrlik qoloqligini bartaraf qilishga yo'naltirilgan rejalarini amalga oshirishni boshlar edi. Muhammad Dovud bu masalani Afg'onistonning chegaralangan ichki moliyaviy resurslari bilan hal qila olmasligini, keng tashqi moliyaviy va texnik-iqtisodiy yordamsiz uddalay olmasligini juda yaxshi tushunar edi. Shuning uchun ham uning hukumati hokimiyat tepasiga kelishi bilanoq bunday yordamni G'arb va Sharqdan izlay boshlaydi. Biroq g'arb davlatlari, birinchi navbatda AQSH yordam berishi uchun mustaqil afg'on davlati manfaatlariga zid bo'lgan siyosiy talablarni qo'yadi. Bunday sharoitda Muhammad Dovud yordam so'rab sovet ittifoqi va sharqiy Yevropa davlatlariga murojaat qilishga majbur bo'ladi. Bu davlatlar yordam ko'rsatish uchun hech qanday shartni o'rtaga tashlamaydi.⁵³

Muhammad Davudning bosh vazir sifatidagi faoliyati "sovuq urush" yillariga to'g'ri keladi, bu esa shubhasiz uning ichki va tashqi siyosatida o'z aksini topadi. Ichki qarama-qarshi mafkuraviy tizim o'rtasidagi "urush" da Muhammad Dovud dastlab ham u tomon bilan ha bu tomon bilan ham Afg'oniston uchun manfaatli bo'lgan bir xil yaxshi aloqa o'rnatishga harakat qiladi. Biroq siyosiy tajriba Muhammad Dovudni Sovet Ittifoqiga yondosh bo'lishga, ammo muayyan masofa saqlashga majbur qiladi.

⁵³В.Г. Коргун. История Афганистана. XX век. М: ИВ РАН: Крафт, 2004. стр.405-411

Ayrim g'arb davlatlari, ayniqsa AQSH Muhammad Dovudning Sovet Ittifoqi bilan bo'lgan munosabatini qoralashga harakat qilishar edi. Muhammad Dovudning dushmanlari uni ham mamlakat ichiga, ham xorijga “qizil qirol” deb ruslarga butunlay qaram, Sovet Ittifoqiga afg'onlarning butun madaniy, siyosiy va iqtisodiy hayotini topshirib qo'ygan deya qoralashga urinishar edi. Aslida esa, u haqiqiy vatanparvar bo'lib, mamlakatning milliy manfaatlariga javob beruvchi ichki va tashqi siyosatni bosqichma bosqich va butkul mustaqil olib borar edi.⁵⁴ U o'z faoliyati davomida asosiy e'tiborini pushtun muammosiga qaratgan edi. Bu masala u uchun vatanparvarlik ma'suliyati, milliy qadr-qimmat va sha'ni edi va nihoyat bu masala bilan uning Afg'on-Pokiston tomonidagi yuksak obro'si bog'liq edi. Rasman Muhammad Dovud va uning hukumati doimo pushtunchilarning milliy-ozodlik uchun kurashini qo'llab-quvvatlar edi, zero Muhammad Dovud va uning hukumati pushtunchilarning roziligisiz Pushtunistonni Pokistonning qismi deb hisoblashini istamas edilar. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Pushtunistonning butunlay mustaqil bo'lishi haqida ochiq va rasmiy ravishda na Muhammad Dovud tomonidan, na boshqa afg'on davlat arboblari tomonidan o'rta tashlanmagan .

Biroq, tan olish kerakki, Muhammad Dovud pushtun muammosini hal qilishda kuch ham ishlatgan. Bundan tashqari Muhammad Dovud barcha pushtunlarni yagona afg'on davlati doirasida birlashtirish uchun zaruriy shart-sharoitni yaratish yo'lida aniq chora-tadbirlarni ko'rar edi. Sovet harbiy mutaxasislari guruhida ishlagan shaxslarning so'zlariga ko'ra, Muhammad Dovud bir necha bora Sovet Ittifoqidagi yopiq rasmiy va norasmiy suhbatlar davomida Pokiston hududida partizanlik urushini tashkil qilish va olib borish masalalari bo'yicha Afg'onistonga yordam va maslahat berishni so'rab murojaat qilgan. Bu borada Muhammad Dovud bu harakatlari bilan pushtun muammosini hal qilishda Pokiston rejimini Kobulning shartlarini qabul qilishga majbur etmoqchiligini yashirmagan.

⁵⁴ В.Г. Коргун. История Афганистана. XX век. М: ИВ РАН: Крафт, 2004. стр.405-406

Sovet tomoni Muhammad Davudning bu masala yuzasidan har bir murojaatiga qat'iy inkor javobini berar edi. 1961-yilning oktyabrida Qobulga Muhammad Dovudni yuqorida takidlangan fikridan qaytarish maqsadida Sovet Ittifoqining Marshall V.D Sokolovskiy boshchiligidagi harbiy delegatsiyasi tashrif buyurdi. Pushtun muammosini hal qilishda kuch ishlatish natijasiz ekanligi hamda CEATO harbiy siyosiy blokining a'zosi bo'lmish Pokiston hududida partizanlik urushining uyushtirishga bo'lgan harakat, shubhasiz Sovet Ittifoqining mintaqadagi keng ko'lamli, oxir-oqibat uchunchi jahon urushiga aylanib ketishi mumkin bo'lgan urushga aralashib qolish mumkinligi delegatsiya tomonidan Muhammad Dovudga to'g'ridan-to'g'ri aytiladi. Muhammad Davudning sovet o'qituvchilari ishtirokida afg'on ofitserlari uchun partizanlik urushining olib borishining uslublari, shakllari va usullarini o'rgatish bo'yicha kurslarni tashkil etish borasidagi iltimosiga qat'iy rad javobi beriladi. Muhammad Dovud Sovet Ittifoqining Pushtunistonda partizanlik urushini uyushtirish xavfli ekanligi borasidagi maslahatini etiborga olmaydi. 1962-1963 yillarda uning buyrug'i bilan Pushtunistonga bir qator diversion guruhlar yuboriladi. Bu guruhlar "Mujoxidlarning milliy Pushtunistoni" niqobi ostida ko'priklar, muhim xo'jalik ob'ektlarini, aloqa tizimlarini, uchastkalarni portlatishar, davlat xizmatchilarini o'ldirar, otryadlarga mahalliy pushtunlarni jalb qilishar edi. Biroq ularning barcha urinishlari sezilarli muvaffaqiyatga erishmaydi. Bu yerda partizanlik urushi olovini yoqishini uddasidan chiqishmaydi va oxir-oqibat tez orada uning tashabuskorining o'zi ham keyin, bosh vazir lavozimiga kirganlar Pokistonga bo'lgan yurishlarni davom ettirishmaydi.⁵⁵

Uzoq yillar mobaynida harbiy xizmatda bo'lgan Muhammad Dovud afg'on ofitserlarini aksaryatining hurmatiga sazobar bo'lgan. Muhammad Dovud qo'shinlardan tez-tez xabar olib turar, ofitserlarning ko'pchiligi bilan shaxsan tanish edi. Uning so'ngi unvoni general-leytenant Muhammad Dovud

⁵⁵Слинкин М.Ф. "Мухаммад Дауд: политический портрет" –М., 2003.С. 143-145

shuningdek fuqarolar orasida ham katta hurmatga sazovor edi. Bunga uning nafaqat xalqaro maydonda milliy manfaatlarni himoya qilish bo'yicha olib borgan faol sa'y-harakatlari, mamlakatda ko'pgina hayotiy muhim sanoat va infratuzilma ob'ektlarini ko'rishga bo'lgan urinish, balki uning olib borgan kadrlar siyosati ham sabab bo'lgan. U qat'iy ravishda joylarda hamda markazda muhim fuqarolik va harbiy lavozimlarga yosh ishbilarmon va kasbiy professional tayyorgarligi bor shaxslarni tayinlar edi, bunda Muhammad Dovud bu kadrlarning ijtimoiy kelib chiqishi va ahvolini e'tiborga olmas edi.

Shu bilan birga Muhammad Dovud hech ikkilanishlarsiz va malakasiz bo'lgan zodagonlar vakillarini nisbatan pastroq lavozimlarga tushirib qo'yar edi. Bu esa shubhasizki, bular orasida noroziliklarga sabab bo'lar edi. Boshqaruv va hukumat ishlariga malakali shaxslarning jalb etilishi Muhammad Dovudning o'z oldiga qo'ygan vazifalarini, jimladan mamlakatning iqtisodiy rivojlantirish, davlat qurolli kuchlarini qayta tashkil etish va modernizatsiyalash kabi vazifalarni hal qilishni tezlashtirishga turtki bo'ldi.

Muhammad Dovud jamoat kayfiyatini kuzatib borar, his qilar va operativ ravishda chora-tadbirlar ko'rar edi. 1962-1963 yillarda qiroлга yo'llagan maktublarida Muhammad Dovud sulolani yoshlar va ziyolilar doirasida radikalizmning o'sishi haqida ogohlantirar va “ xalq charchagan”ligini, zodagonlarning mamlakatda saqlanib kelinayotgan ustunliklari jamoat rivojlanishiga yo'l qo'ymayotganligini alohida ta'kidlab o'tar edi. Shuning uchun Muhammad Dovud monarxiyaga Afg'onistonda parlamentar demokratiya rejimini o'rnatishni, jumladan mahalliy zodagonlarning obro'li din vakillarining va hokazalarning huquqlarini cheklash, boshqaruvning ikki partiyali tizimini joriy qilishni, hukumatni parlamentga bo'ysundirilishini taklif qilgan edi.⁵⁶ Bunday taklif shubhasizki, Zohir shohni qoniqtirmaydi. Aytish lozimki, Zohir shoh qarindoshining (Muhammad Dovud uning amakivachchasi edi) jamiyatda o'sib borayotgan mashhurligi va ta'sir

⁵⁶Ислах-Анис. – 1973, 18 июля; ДыУрдуМаджалла. – 1973. – No 1 (616 – 617). – С.3-6; President and Prime Minister M.Doud's Speeches of July 17 and August 23, 1973. – Kabul: Government Printing Press, 1973. – P

doirasini kuzatar ekan, o'z taxtidan xavotirlana boshlaydi. Shuningdek, saroy ayyonlarning ma'lum qismi ham, Shoh Vali- Abdul Vali boshchiligidagi qismi ham xavotirda edi. Bu esa Muhammad Dovudga qarshi guruhlarining shakllanishiga zamin yaratadi.

1960-yillarning boshlarida xo'jalik qurilish sohasida va mamlakatdagi qator ijtimoiy-iqtisodiy o'zgartirishlarga qaramay Muhammad Davud hukumatining ichki siyosatining cheklanganligi aniq ko'rina boshlaydi va eng muhimi, siyosiy institutlar tizmini oz-moz bo'lsada isloh qilish, jamiyat hayotining demokratlashtirish, aholining ishchi qatlamining sharoitini yengillashtirishga qodir emasligi ko'rinadi. Natijada Muhammad Dovud liberal-burjuaziya vakillari orasida ishonchni yo'qota boshlaydi, ular esa Muhammad Dovud uchun eng muhim ijtimoiy asos, poydevor edi. Shuningdek Muhammad Dovudning ichki va tashqi siyosatiga nisbatan afg'on jamiyatining g'arb tarafdorlari bo'lgan doira vakillari ham noroziliklarini bildirib boshlashadi. Ular Muhammad Dovud hukumatini afg'on-pokiston munosabatlari yomonlashganligi, g'arb davlatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarning cheklanganligi uchun shuningdek iqtisodiyotga aralashuv siyosatini o'tkir tanqid qilishar edi.

Natijada Muhammad Dovud har tomonlama ko'makdan ajralganidan keyin 1963 yilning 3-martida qirol Zohir shohga iste'foga chiqishi haqida ma'lum qiladi, qirol bir xaftadan keyin 9-martda uni iste'foga chiqaradi.

Iste'foga chiqqanidan keyin Muhammad Dovud qirol bilan shaxsiy aloqalarni qo'llab-quvvatlab turishdan bosh tortadi, qirol esa bir necha bora singlisi orqali (Muhammad Dovudning xotini) u bilan aloqalarni tiklashga harakat qiladi. Iste'foga chiqqanidan keyin ham Muhammad Dovud faol hayot tarzini davom ettiradi. Uni o'z uyi atrofida (Kobul markazidagi tuman, qirol saroyi yonida) qo'riqchilarsiz aylanib yurganiligini tez-tez ko'rish mumkin edi, yoki bo'lmasa poytaxt ko'chalarida va poytaxtdan tashqarida avtomabilda yurganligini, yoxud Karga suv ombori sohilidagi kurort joylarda (bu yerda dam olishni yoqtirar edi) uchratish mumkin edi. U qayerga bormasin hamma joyda

xurmat va xursandchilik bilan kutib olishar edi. Shuningdek harbiylar orasida ham u o'z xurmat va e'tiborini yo'qotmagan edi . Uning surati qirolning surati yonida kazarmalarda harbiy boshliqlarning xonalarida osilib turishda davom etardi. Muhammad Dovud iste'foga chiqqanidan keyin nazorat ostida bo'lsada, u avvalgidek o'z tarafdorlari- harbiylar doirasida ham, fuqarolar doirasida ham aloqalarni saqlab qolgan edi. Harbiylar bilan u ishonchli vakili palkovnik G'ulom Xaydar Rasuli orqali, fuqarolar bilan esa devonning sobiq boshlig'i Muhammad Xasan orqali aloqa qilar edi. Biroq vaziyat 1964-yilning oxirida yangi qirollik konstitutsiyasining qabul qilinishi bilan keskin o'zgardi. Yangi konstitutsiyaga ko'ra (24 modda) Muhammad Dovud qirol oilasi a'zosi sifatida siyosiy faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan qonunan mahrum qilindi. Shundan keyin u o'z tarafdorlari bilan yashirincha aloqalarni davom ettirdi. 1963-yilga kelib bular orasida mamlakatda manarxiyani hokimiyatning eskirgan institute sifatida yo'q qilish fikri shakllanadi. 70-yillarning boshlariga kelib ikki yil davomida qishloq xo'jaligi ekinlarining xosildorsizligi nihoyatda sovuq qish va qurg'oqchilik tufayli chorvaning kamayib ketishi sababli mamlakatda yuzaga kelgan jiddiy iqtisodiy inqirozni bartaraf qilishida qirol va uning hokimiyati butkul ojiz bo'lib qoladi. Bunday vaziyat esa Muhammad Dovud va uning tarafdorlarining manarxiya rejimini tugatish fikrini qattiyalashtiradi. Aynan shu yillarda Muhammad Dovud guruhining yosh harbiy oppozitsiyachilar bilan munosabatlari o'rnatiladi. Ular tomonidan nihoyatda yashirincha davlat to'ntarishi rejasi ishlab chiqiladi. 1973-yilning 16-iyuldan 17-iyulga o'tar kechasi Afg'onistonda Muhammad Dovud boshchiligida davlat to'ntarishi uyushtiriladi, bu jarayonni aholining aksariyat qismi qo'llab-quvvatlaydi. 17-iyul kuni tongda Muhammad Dovud mamlakatda monarxiya rejimi tugatilganligini va yangi davlat Afg'oniston Respublikasi tug'ilganligini radio orqali e'lon qiladi. Davlat tuntarishi amalga oshirilishi bilanoq mamlakatning yuqori boshqaruv organi –Afg'oniston Respublikasining Markaziy qo'mitasi tashkil etiladi. Muhammad Davud davlat boshlig' va bosh vazir etib saylanadi,

keyinroq esa hukumat shakllantirilganda milliy mudofa hamda tashqi ishlar vaziri lavozimlarini ham egallaydi.

Biroz vaqt o'tgandan keyin Muhammad Davud mamlakatda yuz bergan o'zgarishlarni aks ettiruvchi, hokimiyat dasturlari atrofida jamiyatning barcha sinf va qatlamlarini birlashtirishga xizmat qiluvchi va shu tariqa yangi rejimni qo'llab-quvvatlashni ta'minlovchi mafkuraviy konsepsiyalar natijasida "revolyutsiyaning milliy va xalqaro ta'rifi" ishlab chiqilib, Muhammad Dovudning respublika rejimini rasmiy mafkurasiga aylanadi. Bu mafkuraning tuzilishi qat'iy ishlab chiqilmagan bo'lib, asosan monarxiya paytidagi g'oyalarni yana takrorlar edi. Jumladan vatanparvarlik, milliy qadriyat va urf-odatlarining muqaddasligi, xalqchilik, islom, qonunga asoslangan demakratiya, antikolonializim va boshqalar. Lekin yangi g'oyalar ham kiritilgan edi. Davlat mafkurasining asosini tashkil etuvchi element sifatida Muhammad Dovud sotsializm deb hisoblar edi. Lekin u sotsiolizmning faqatgina iqtisodiy aspektini olgan bo'lib, uni milliy va islomiy kompanentlar bilan to'ldirgan edi.

Monarxiyaning ag'darilishi va respublika hukumatining mamlakat iqtisodiy va siyosiy hayotida birinchi navbatda agrar sohada islohatlar o'tkazishni rejalashtirishi shubhasizki konservativv doira vakillarining noroziliklarini keltirib chiqaradi. Respublika e'lon qilinganidan keyin o'tgan ilk besh oyning o'zidayoq ular ikkita yirik hokimiyatga qarshi harakatni tashkil qilishdi, 1960 yilda esa mamlakatning 11 viloyatida qo'zg'olon uyushtirishdi. Bularning bari, shuningdek Muhammad Davud tomon aytilgan turli ayblovlar, jumladan uning sovet g'oyalari va xudosiz komunizmga berilgan degan ayblovlar, shubhasizki respublikaga ham ta'sir o'tkazdi. Resoublika boshqaruvidagi konservativ va xalqchillik kayfiyatidagi kishilar Muhammad Dovudni sotsialistik yo'nalishning Afg'oniston uchun muvofiq emasligiga, qarshi chiqqanlarning talabi asosli ekanligiga ko'ndirishga harakat qilishadi. Shu tariqa Muhammad Dovud hokimiyatida asta-sekinlik bilan yana qarama-qarshiliklar, tushunmovchiliklar yuzaga kela boshlaydi.

Muhammad Dovud hokimiyati tepasiga kelganidan keyin, yana birinchi navbatda mamlakatda iqtisodiy muammolarni hal qilishga shuningdek sanoat, savdo-sotiq, moliya va ijtimoiy sohalarda ham islohatlar o'tkazishga harakat qiladi. Bu muammolarning hal qilar edkan, Muhammad Dovud 1953-1963 yillarda qo'llagan taraqqiyotning eski modelini takror qo'llaydi, deyish ham mumkin. Biroq moddiy va moliyaviy vositalarning o'ta taqchilligi sharoitida, uning respublika hukumati ko'pgina iqtisodiy va ijtimoiy dasturlarni nafaqat amalga oshirishga balki ularni boshlashga ham qurbi yetmaydi.⁵⁷

Aholining aksariyat qatlamini nihoyatda og'ir turmush tarzi, iqtisodiyot sohasidagi yirik yetishmovchiliklar sababli xorijdan zaruriy moliyaviy va texnik iqtisodiy ko'makni olish uchun Muhammad Dovud Afg'onistonning tashqi siyosiy asoslarini sezilarli ravishda o'zgartirishga sabab bo'ladi. Muhammad Dovud bir paytning o'zida ham g'arb davlatlari bilan, ham mitaqa davlatlari bilan ham aloqalarni faol rivojlantira boshlaydi. Natijada Afg'onistonning AQSH, Eron, Misr, Saudiya Arabistoni va boshqa davlatlar bilan hamkorligi kengayadi. Muhammad Dovud shuningdek Pokiston bilan aloqalarni yaxshilashgachka e'tibor qaratadi. Tinchlik va yarashuv uchun tovon sifatida Muhammad Dovud Dyurandda liniyasini ikki mamlakat o'rtasidagi davlat chegarasi deb tan olishga rozi bo'ladi. Bu esa Muhammad Dovudning pushtun muammosidan voz kechganligini anglatar edi. Bunday harakat bilan Muhammad Dovud o'zining keng tarafdorlari birinchi navbatda pushtun ofitserlari orasida qo'llab-quvvatlashdan mahrum bo'ldi va bir ondayoq o'n yillar davomida saqlab kelgan "pushtun huquqlari himoyachisi" degan nomdan mahrum bo'ldi.

Muhammad Dovud hokimiyatining tashqi siyosatida o'zgarishlar jamoat tomonidan turlicha qabul qilindi. Ayrimlar bunday o'zgarishni rivojlanish uchun qo'yilyotgan qadam deb baholab qo'llab-quvvatlasa, boshqalar keskin tanqid qilib, g'arb bilan yaqinlashuvchi Afg'onistonning milliy manfaatlarini hamda pushtunlarga nisbatan sotqinlik, xoinlik deb qabul qildilar.

⁵⁷Пойя С. Основные аспекты новой экономической политики премьер-министра Афганистана Мухаммад Дауд-хана (1953-1963 гг.) Общество и политика.-М., 2012. С.25-26.

Aytish joizki, bunday yakunga Muhammad Dovudning avtoritarlikka intilishi va siyosatning bosqichma-bosqich amalga oshirilmaganligi sabab bo'ldi. 28-aprelning erta tongida, taxminan soat 4:00 larda Gulxan saroyiga qo'zg'olon ko'targanlar bostirib kerishadi va Muhammad Dovudga taslim bo'lish shartini qo'yishadi, u esa ularga qarata o'q uzadi. Yuzaga kelgan otishmada Muhammad Davuddan tashqari uning oilasining 18 a'zosi, jumladan besh farzandi va akasi Muhammad Naim o'ldiriladi. Muhammad Davud so'zsiz Afg'onistonning XX asr tarixidagi yorqin, kuchli va shijoatli siyosiy arbob edi. Afg'oniston xalqini qoloqlikdan farovon hayotni shakllantirish Muhammad Davud umrining bosh maqsadi edi. U bilan suhbatda bo'lgan kishilarning aytishicha Muhammad Davud dunyoqarashi keng, sabrli va temir irodali, maqsadga intiluvchan va o'z kuchiga hamda haqligiga isohuvchan va sharqona ayyorlik hislatiga ega shaxs bo'lgan. Lekin, ko'pchilik profeddional-harbiylarda bo'lganidek, ham o'ta dangalchi, o'tkir siyosiy kurashlarda va yuzaga kelgan tushunmovchiliklarda kelishuv yo'lini izlash yoki tanlashni xohlamaslik, aksincha kuch ishlatish bilan hal qilish odati bor edi.

XULOSA

Bugungi butun rivojlangan davlatlar tomonidan qiziqishlarga sabab bo'layotgan Afg'oniston muammosi, hozirgi kunda ham davom etayotgan chuqur inqiroz o'z-o'zidan kelib chiqqan emas. Bu inqiroz albatta Afg'oniston jamiyatida va boshqaruv tizimida sodir bo'lgan chuqur o'zgarishlar, hukmron doiralarning borib-borib xalqdan uzoqlashishi, uning xohish-istaklarini hisobga olmaslik, necha asrlardan beri davom etib kelayotgan an'analar, urf-odat va diniy qadriyatlarning bir necha yillar ichida keskin o'zgarishlarga uchrashi natijasidir. Afg'oniston davlatchilik tarixida XX- asrning 50-60 yillarida o'zining rivojlanishing bir qancha bosqichlarga yuksalish davri bo'ldi. Bu davirda o'zining hukmdorligini olib borayotgan Muhammad Zohirshoh Afg'onistonda bir qancha o'zgarishlar sodir bo'ldi. Zohirshoh hukmronligi davrida Afg'oniston monarxiya davri deb etirof etilgan. Aynan Zohirshoh davri Afg'onistonda "oltin asri" bo'lganligini bilish mumkin. Bu davirda Afg'onistonda barcha kichik va katta millatlarning teng totuv yashashiga erishgan. Lekin aynan Zohirshoh hukmronligi vaqtida mayda millatlar o'z siyosiy huquqlarini talab qilib turli siyosiy partiya va tashkilotlarni tuzdilar diniy ruhoniylar hukmron doiralarning siyosatidan norozi bo'lib hukmdor doiralarga qarshi nomayoishlar olib borganlar. Zohirshoh boshqaruvi davrida afg'on jamiyatini zamonaviylashtirish borasida islohotlar o'z natijasini bergan. Zohirshoh hukmronligi davrida hukumatga ko'plab chet el maslaxatchilar taklif etildi birinchi zamonaviy universitetga asos solindi. Zohirshoh davrida ayollar ta'lim olish va saylash imkoniyatiga ega bo'ldilar, shohning oila a'zolari hukumatda biror bir mansabni egallashni man etildi. Yevropa bilan madaniy va savdo-iqtisodiy aloqalarni kuchaytirdi. Sanoatni rivojlantirish qishloq xo'jaligini yangilash borasida chora tadbirlar amalga oshirildi. Ayollarga chodra o'rash majburiyati bekor qilindi. Afg'oniston davlatchilik tarixida aynan XX asrning 50-60 yillarida o'zining rivojlanish bosqichining hamma sohalarida ancha yuksalishi kuzatilgan va o'zining tinch totuv davrini boshidan o'tkazgan.

Afg'on xalqining ko'p asirlar davomida olib brogan ozodlik harakatlari o'z samarasini bermadi. Afg'onistonning monarxik davrini muhokama qilganda bu davrdagi afg'on jamiyatining holatiga va siyosiy elitaning mamlakatni boshqarishda nechog'lik to'g'ri yo'lni tanlaganligi yoki aksincha ekanligiga e'tibor qaratmoq lozim. Omonullaxon boshlab bergan yangicha islohotlar Nodirshoh va Zohirshoh davrida ham davom ettirildi. Ularning mamlakatni g'arb andozasidagi konstitutsion monarxiyaga aylantirish, kishilarda siyosiy va an'anaviy qarashlarni o'zgartirishga urinishi o'z natijasini berdi desak mubolag'a bo'lmaydi: Afg'oniston chet mamlakatlar bilan har doimgidan ham ko'proq va muvaffaqiyatliroq aloqalarda bo'ldi. Ilmiy-texnikaviy hamda madaniy aloqalar kengaydi. Omonullaxonning chet ellarga uyushtirgan ko'p yillik safarlari ham aynan Afg'onistonning xalqaro miqyosidagi obro'sini oshirishga qaratilgan edi.. Bu harakatlar bilan podshoh va uning oila a'zolari Afg'oniston dunyoning istalgan davlati bilan keng ko'lamdagi aloqalarni o'rnatishini isbotlamoqchi bo'ldi. Ammo, aynan shu dunyoviy islohotlar natijasida diniy ruhoniylarning hukumatga qarshi kayfiyatda solib qo'ydi. Keyinchalik Zohirshohning "demokratik tajriba" si va monarxik tuzumni demokratlashtirishga urinishi mamlakatni butunlay yangicha yo'ldan olib borishni nazarda tutardi. Lekin Zohirshoh o'zi istagandek g'arbcha liberalizatsiya natijasida aholi orasida muholif qarashlar kengayib bordi va bu jarayon monarxik hukmron tabaqaning o'ziga daxl qila boshladi. Buning natijasida Afg'onistonda tobora kuchsizlanib borayotgan monarxiya uzil-kesil tugatildi. Mana shunday tarixiy vaziyatda Muhammad Dovud olib brogan siyosati esa Afg'oniston davlatchiligida muhim ahamiyat kasb etdi. Muhammad Dovud olib brogan zamonilashtirish siyosati afg'on jamiyatida ancha yuksalishlarga sabab bo'ldi. Muhammad Dovud bosh vazir bo'lgandan keyin davlat boshqaruvi va iqtisodiy hayotni rivojlantirgan holda mamlakatni modernizatsiya qilishni ko'zda tutuvchi " boshqariladigan iqtisodiyot" deb nomlangan dastur ishlab chiqdi. Mamlakatda iqtisodiyotni rivojlantirish uchun chetdan katta miqdorda kapital jalb qilish va shuningdek milliy kapitaldan bular

jumlasiga davlatda kichik va o'rta biznesni rivojlantirish va iqtisodiyotni rivojlonishi uchun katta imkoniyatlar yaratdi. Davlat boshqaruvi apparati mamlakatni rivojlantirish uchun ikkita besh yillik dastur ishlab chiqdi. Bu vaqt ichida afg'on milliy sanoati rivojlantirildi. Masalan Kobulda shlakoblok va asfalt zavodi shuningdek, non kombinati, Jalolobodda esa shakar zavodi va ikkita sement zavodi va boshqa sanoat korxonalari qurib ishga tushirildi. 1960 yilda Gulbahar provinsiyasida katta tekstil zavodi ishga tushirildi. Saborda IES va Kobul va Qandaxorda xalqaro ayroport bunyod qilindi. Modernizatsiyadan keyin Kobul va Qandaxor provinsiyalaridagi shaxtalarda ko'mir qazib chiqarish ikki marotaba ko'paydi.

Aholining yashash sharoiti yaxshilandi. O'quv yurtlarining soni oshdi va ayollarning paranji yopinib yurish majburiyatlari bekor qilindi. Muhammad Dovudning modernizatsiya siyosati afg'on jamiyatini ko'p sohalarda yuksalishiga olib keldi va bular natijasida aholining yashash sharoiti ham yaxshilandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari.

1. I.A. Karimov. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" Toshkent, O'zbekiston, 1997.
2. I. A. Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q".- Toshkent, Sharq 1998.
- 3 I.A. Karimov "Bizdan ozod va obod Vatan qolsin".-Toshkent, O'zbekiston, 1996.
- 4 I.A. Karimov "O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz". -Toshkent, O'zbekiston, 1999.
- 5 I.A. Karimov "Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz".-Toshkent, O'zbekiston, 2000.
- 6 I.A. Karimov "Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak."-Toshkent O'zbekiston, 2002.
- 7 Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. –Toshkent, O'zbekiston, 2003.
- 8 Karimov I.A. "Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq".-Toshkent, O'zbekiston, 2004.
- 9 Karimov I.A. "O'zbek xalqi hech qachon hech kimga qaram bo'lmaydi."-Toshkent, O'zbekiston, 2005.
- 10 Karimov I.A. "O'zbekiston demokratik taraqqiyotning yangi bosqichida."-Toshkent, O'zbekiston, 2005.
- 11 I.A. Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch."-Toshkent, Ma'naviyat, 2008.

2. Kitoblar, o'quv qo'llanmalar, darslik va monografiyalar.

- 12 Slinkin M.F. "Muhammad Dauda. Politicheskiy portret"
- 13 Арунова М.Р. Афганская политика США. -М., 2000.
- 14 Ахрамович Р.Т. Афганистан в 1961—1966 гг. -М., 1967.
- 15 Виктор А. М. Загадки афганской войны.- М.: Вече 2006

- 16 Ганковского Ю.В История Афганистана.- М., 1982.
- 17 Губар Мир Гулам Мухаммад. Афганистан на пути истории. Под ред.Ганковского Ю.В. и Коргуна В.Г. Пер. и ком. Давлятова Муллошо.-М., 1987.
- 18 Дворянкова Н.А. Современный Афганистан. Под ред.-М., 1960.
- 19 Коргун В.Г. Афганистан: Политика и политики.-М., 1999.
- 20 Коргун В.Г. Интеллигенция в политической жизни Афганистана.-М., 2003.
- 21 Коргун В.Г. История Афганистан XX век. М, 2004
- 22 Лапшин Ю. М. Афганский дневник.-М. ОЛМА-ПРЕСС Образование, 2004.
- 23 Ляховский А.А., Некрасов В.М. Гражданин, политик, воин. Памяти Ахмад Шаха Масуда. - М. 2007.
- 24 Меримский В.А. В погоне за «Львом Панджшера».-Москва, 1993
- 25 Сикоев Р.Р. Талибы (религиозно-политический портрет). -М., 2002.
- 26 *Пойя С.* Основные аспекты новой экономической политики премьер-министра Афганистана Мухаммад Дауд-хана (1953-1963 гг.) Общество и политика. -М. 2012.
- 27 В.В. Басов, Г.А. Поляков. Афганистан: трудные судьбы революции. -М., "Знание", 1988.
- 28 Афганистан] Призыв к национальному примирению "Известия", № 5 (21812) от 5 января 1987.
- 29 Перейти к:^{1 2} В. Михин. [Афганистан] В борьбе за новую жизнь "Международная жизнь", № 9, 1982.
- 30 Перейти к:1 2 3 Л.И. Медведко, А.В. Германович. Именем Аллаха... Политизация ислама и исламизация политики. -М., Политиздат, 1988.

- 31 Плешов О.В. Движение «Талибан»: истоки фундаментализма. — Афганистан: война и проблемы мира. -М., 1988,
- 32 Слинкин М.Ф. Афганистан: оппозиция и власть (60 – 70-е гг. XX в.).–Симферополь.1999.
- 33 М.Ф.Слинкин – «Государственный переворот 1973 г. в Афганистане».
- 34 Ислах-Анис. – 1973, 18 июля; ДыУрдуМаджалла. – 1973. – No1 (616 – 617); President and Prime Minister M.Doud's Speeches of July 17 and August 23, 1973. – Kabul: Government Printing Press, 1973.
- 35 Коргун В.Г. Афганистан на переломном этапе. - Афганистан на переходном этапе.- М. 2002
- 36 Коргун В.Г. Афганистан и Иран. - Афганистан: война и проблемы мира.-М.2001
- 37 Булатов Ю.В. Роль религиозно-этнического фактора во внутриафганском конфликте Афганистан: война и проблемы мира.(сборник статей),выпуск 3,ИИИиБВ,ИВ РАН.2000.
- 38 Алимов Р. Центральная Азия: общность интересов. –Т.Шарк, 2005.
- 39 Алимов Р., Арифханов Ш. и др. Центральная Азия: формирование новой архитектуры безопасности. –Т.:Шарк, 2002.
- 40 Акмалов Ш. Национальная стратегия Республики Узбекистан в вопросах мирного урегулирования афганского конфликта (1991-2009 гг.). – Т.: Тошкент ислом университети, 2009.
- 41 Белокреницкий В., Москаленко В., Шаумян Т. Южная Азия в мировой политике. – М. Наука, 2003.
- 42 Босин Ю.В. Национальные проблемы современного Афганистана. –М.: ИВ РАН, 1992.
- 43 Князев А.А. Афганский конфликт и радикальный ислам в Центральной Азии: Сб. Док.и материалов. –Бишкек: Илим,2001.

- 44 Ляховский А.А., Забродин В.М. Тайны Афганской войны –М.: Плената,1991.
- 45 Масутов Т. Афганские дневники. –Алматы: РОНД, 2004.
- 46 Пластун В. Афганистан: симптом или синдром?. –М., 2001.
- 47 Сборник. Афганистан – Талибан и мировая политика. – М.:ИВ РАН, 1996.
- 48 Сикоев Р.Р. Пресса афганской эмиграции. –М.: ИВ РАН, 1999.
- 49 Стивен Таннер. Афганистан история войн – М.: Эксмо, 2004.
- 50 Туляганова Н.У. Афганский фактор в современных международных отношениях в Центральной Азии. –Т.:Шарк, 2004.
- 51 Акмалов Ш.И. Проблема афганского урегулирования в современных Пакистано-Иранских отношениях. –Т.:ТашГИВ, 2002.
- 52 Казакханов Х.А. Международно-правовые аспекты борьбы с финансированием терроризма. –Т.:УМЭД, 2008.
- 53 Ибрагимов С.Ш. Международный терроризм как фактор угрозы безопасности Республики Узбекистан. –Т.:ТашГИВ, 2005.
- 54 Васькин А.И. Пакистано-Китайские отношения. –Т.:ТашГИВ, 1997.

5. Davriynashrlar

- 60 Арунова М. Трудный путь к миру Азия и Африка сегодня. – 2002.
- 61 Джонсон Г. Сотрудничество по безопасности в Центральной Азии после события 11 сентября Материалы международной конференции. –Т.: Шарк, 2002.
- 62 Каримов Р. Конфликтный потенциал в треугольнике Узбекистан-Афганистан—Таджикистан Центральная Азия и Кавказ. –2006.
- 63 Коргун В. Афганистан на порге мирного этапа Центральная Азия и Кавкз. –2006.
- 64 Коргун В. Современный Афганистан. Демократия XIV векаРоссия в глобальной политике. –2005.

65 Князев А. Афганистан как источник религиозного экстремизма и терроризма Центральная Азия и Кавказ. –2000.

66 Лалетин Ю. Новое политическое объединение в Афганистане: первые шаги // Азия и Африка сегодня. –2008.

67 Лаумулин М. Центральная Азия и ситуация в Афганистане Центральная Азия и Кавказ. –2004.

68 Некрасов В. Кабульские встречи // Азия и Африка сегодня. – 2002.

69 Рашидов Р. К характеристике политических партий в современном Афганистане // Общественная наука в Узбекистане. –Т. – 2009.

70 Сапай Х. Только сильный народ сохранит Афганистан Центральная Азия и Кавказ. –2008.

71 Сикоев Р. Какой будет конституция нового Афганистана? Азия и Африка сегодня. –2003.

72 Толипов Ф.Ф. Испытание геополитики терроризмом и антитерроризмом // Россия и Мусульманский мир. –2008.

73 Туронок С., Эбади Х. Афганский конфликт. Социо-культурное измерение Центральная Азия и Кавказ. –2007.

74 Фадеева И. Ислам и политический конфликт // Россия и Мусульманский мир. –2008.

3 Ingliz va dariy tillaridagi adabiyotlar

75 Ahmed Rashid, “Kabul”,2002,(LINK): “...The last time Zahir Shah saw Kabul it was an international diplomatic backwater, but a thriving, bustling town where the elite... ”

76 Mir Ghulam Muhammad Ghoobar, P: “Afghanistan dar maseer Tarikh”; Доклад Госдепартамента США от 1963 г.

77 Ethnicity and the Political Reconstruction in Afghanistan. Conrad Schetter Center for Development Studies (ZEF), University of Bonn, Germany. 2003.

78 War in Afghanistan: Strategy, Military Operations, and Issues for Congress. Steve Bowman. Specialist in National Security. Catherine Dale. Specialist in International Security. December 3, 2009.

79 Preferred Citation: Kakar, M. Hassan Afghanistan: The Soviet Invasion and the Afghan Response, 1979-1982. Berkeley: University of California Press, c1995.

80 Political Parties in Afghanistan. National Democratic Institute. June 2011

4 Davriy nashrlarda e'lon qilingan maqolalar

1. "Afg'oniston" (halokatlar, yo'qotishlar, taqdirlar). "Xalq so'zi" gazetasi, 2002 y. 4 yanvar, №3-soni
2. "Aziya i Afrika segodnya", 1998 y. iyun, 39-bet.
3. "Pravda" gazetasi, 1989 y, 17 avgust
4. "Huquq-Pravo-Law", 2004 y. 4-soni, 11-bet
5. Сафрончук В.С. Афганистан при Б.Кармале и Нажибулле// Азия и Африка сегодня. 1996. № 6.
6. Сафрончук В.С. Афганистан при Б.Кармале и Нажибулле// Азия и Африка сегодня. 1997, №1.

4 Internet manbalari

- a. <http://www.grandars.ru/college/sociologiya/upravlenie-politicheskim-konfliktom.html>
- b. http://en.wikipedia.org/wiki/Central_Intelligence_Agency
- c. <http://www.infoplease.com/encyclopedia/world/afghanistan-history.html>

- d. <http://www.usnews.com/debate-club/should-the-us-withdraw-from-afghanistan-sooner>
- e. <http://www.afghanistanstudygroup.org/2012/01/04/withdraw-troops-from-afghanistan-but-stay-engaged/>
- f. http://www.transparency.org/policy_research/surveys_indices/cpi/2009/cpi_2009_table.
- g. <http://www.thomaspmbarnett.com/globlogization/2010/6/14/afghans-minerals-deposits-now-super-sized-by-us-geologi.html>.
- h. <http://siteresources.worldbank.org/INTPREMNET/Resources/EP5.pdf>.
- i. <http://www.worldwatch.org/node/>

ILOVA

**Muhammad Dovudning Afg'anistonda bosh vazirlik davridaolib brogan
islohotlarining qisqacha tasnifi:**

Ijtimoiy sohada.

Ijtimoiy tengsizlik kambag'allik va qoloqlikka barham berish.

Iqtisodiy sohada

Og'ir sanoatni rivojlantirish, davlat sektirini kuchaytirish,
Hususiyy tadbirkorlikni qo'llab quvatlash, yengil va
Kichik sanoatni davlat nazoratiga olish.

Siyosiy sohada

Hokimiyatni xalq qo'lida markazlashtirish
Milliy mustaqillikni mustaxkamlash.

Tashqi siyosatda

Barqarorlik, xavfsizlik va tinchlik uchun kurash.

**1950-1960 yillarda Afg'anistonning eksport-import
operatsiyalarida ishtirok etgan xorijiy firmalar.**

Davlat	Kompaniya
Italiya	“Italof”
Gollandiya	“Gollandiya foundeyshn”
Germaniya	“Snemens”
Shvetsiya	“ACTKO”
AQSH	“Indomer”
Angliya	“Anglo-Afg'on”
Hindiston	“Radj Treyding kompani”
Pokiston	“Doudkar preshan”
Fransiya	“Gosho” va “Marubani”

**1950-1960 yillari Afg'on Milliy Bank guruxini faoliyatini
chegaralash uchun yaratilgan banklar.**

1954-yil asosiy kapitali 150 million afg'oniy bo'lgan
“Qishloq Xo'jalik Sanoat Banki” ochildi. Bank
xissadorlari to'g'risida malumotlar oshkor qilinmagan.

1955- yil asosiy kapitali 120 million afg'oniy bo'lgan Pushtun
savd banki ochildi. Bu kapitalning 40 mi million
afg'oniy. “Afg'aniston bank”, 20 mil afg'on “Davlat
Manapoliya Boshqarmasi”, 10 mil afg'on “Koperativ Depo”
5mil. Afg'on”Qishloq Xo'jalik Sanoat Banki” 5mil afg'on
“Pensiya Boshqarmasi”, 40 mil afg'oni miqdordagi
aksiyalar erkin savdoga chiqarildi.

1954- yil Qurilish xissasi negizida Qurilish Ipoteka Banki tasis etildi.
Uning asosiy kapitali 60 mil afg'oniyga teng bo'lib shundan 30 mil
Afg'oniy ”Afg'oniston banki” 20 mil afg'oniy “Pensiya
Boshqarmasi”
Kiritdi. 10 mil afg'oniy aksiya erkin savdoga chiqarildi.

**1950-1960 yillarda sanoatni rivojlantirish uchun tasis etilgan
shirkatlar.**

Davlat muassasalari va korxonalarni tavarlar va materyallar bilan taminlash maqsadida.
“Medisina Deposi” kapitali 20 mil afg’oniy
Tayyorlov boshqarmasi kapitali 100 mil afg’oniy
Afg’onistonga dori darmon va tibbiyot uskunalarini import qilish va sotish maqsadida.
“Paxta” kapitali 200 mil afg’oniy.
Paxta savdosini yurutish maqsadida 100 mil afg’oniy.
“Pashm” kapitali 60 mil afg’oniy.
Jun tayyorlovi va eksporti maqsadida.
“Kalino” kapitali 15 mil afg’oniy.
Gilam tayyorlovi va eksporti maqsadida.
“Lorgo tovon” kapitali 15 mil afg’oniy
Yog’och eksporti va import maqsadida

